

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

ALIS'HYeR NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT  
TA'LIMI FAKULTETI

“BADIY GRAFIKA VA UNI O'QITIS'H METODIKASI”  
KAFEDRASI

Beginqulova Aziza Bahtiyorovna

# **Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash usullari**

**MALAKAVIY BITIRUV IS'HI**

**5140700**-Tasviriy san'at va muxandistlik grafikasi  
(bakalavriat) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar:

Katta o'qituvchi D.Ergashev

Malakaviy bitiruv ishi “Badiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2013 yil 22 maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya yetildi (bayonnoma №10)

Kafedra mudiri:

dos. M.Umarov

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 20\_\_ yil \_\_ iyundagi majlisida himoya qilindi va \_\_\_\_ ball bilan baholandi (bayonnoma №\_\_)

YaDAK raisi: \_\_\_\_\_

A'zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Samarqand-2013

## MUNDARIJA

|                                                                                            |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <b>KIRISH</b> .....                                                                        | 3-7   |
| <b>I bob. Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning pedagogik tomonlari.</b> .....  | 8-25  |
| 1.1 Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning pedagogik ahamiyati. .<br>.....       | 8-13  |
| 1.2 Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash muammolari. ....                          | 13-18 |
| 1.3 Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning o'ziga xos<br>xususiyatlari .....     | 18-25 |
| Birinchi bob bo'yicha xulosa.. .....                                                       | 25-26 |
| <b>2 bob Grafikada rasm chizish va uni o'qitish metodikasi</b> .....                       | 27-53 |
| 2.1 Grafikada rasm ishlashning bosqichli usullari .....                                    | 26-37 |
| 2.2 Tasviriy san'atning grafikada ishlangan rassom asarlari va ularning<br>tahlili.. ..... | 37-53 |
| <b>Umumiy xulosalar</b> .....                                                              | 53-54 |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....                                                     | 55    |

## **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati tufayli barcha soxalarda muhim o'zgarishlarni sodir etdi. Davlatimizda 1997 yili "Talim to'g'risida" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinib shu asosida uni islohatlarini amalga oshirdi. Mana shu oliy ta'lim va kasb hunar ta'limini, hamda umumiy o'rta ta'limni ham butunlay isloh qilish ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Islohatlarimizning bosh maqsadi eskidan qolgan sarqitlardan butunlay holis bo'lish edi. Shuning uchun tez vaqtlar ichida shunday muhim natijalarga ham erishdik. Endi bu kabi muhim masalalar o'qitish tizimini uzluksizligini taminlashga xizmat qilmoqda. Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli maruzasida 1997 yil 29 avgust Oliy Majlisning IX – sessiyasida talim sohasiga katta e'tibor berganligi natijasi deb bilamiz. Ta'lim sohasida o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos bo'lish, yuksak manaviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning sifatini xalqaro standart talablari darajasiga yetqazish kerak edi.

**Muommoning o'rganilganlik darajasi.** Tasviriy san'at ta'limiga oid bajarilgan ishlarni tanlab olish masalalari ko'plab asarlarni yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Grafik rassomlarning ishlari va ularning tahlili bo'yicha chiqqan metodik asarlarni topish ancha mushkul masalalardan. Grafikada ijod qilish rassomlarning asosiy ishi. Shunday bo'lsada grafik asarlarni keyingi vaqtlarda ko'p uchratmaymiz. Tasviriy san'atning grafik rasmlar chizish ishlarini amalga oshirgan ko'plab O'zbekiston xalq rassomlari Iskandar Ikramov, O'rol Tansiqboyev, Rahim Axmedov, Ro'zi Choriyev, Qutlug' Basharov, Viladimir Vinediktov, Qaydalov, S.Subxonov, N.Ten, Te'lman Muhammedov, Anvar Mamajonov, Akmal Nuriddinov, N.Kolonov va boshqalar turli grafik rasmlar yaratib keldilar. Grafik rasmlar chizish bilan yaratilgan asarlarning asosiy qismida xalqimizning hayoti aks ettirilib unda shoirona ko'tarinkilik tasvirlanadi. Shuningdek, tasviriy san'atning grafika sohasida ijod qiladigan ko'p ham rassomlarni uchratmaymiz. Chunki, bunday asarlar yaratish ko'pincha kitoblarni bezatish, gravyura, linagravyura,

ksilografiya tarzida bajarilib inson ruhiy olam bilan birga tasvirlanadi. Bunday asarlarning bir qismini miniatyurachi rassomlarning ijodida uchratishimiz mumkin.

Pedagogika fanlari doktori, professorlar R.Xasanov, S.Bo'latov, pedagogika fanlari nomzodlari, dosent B.Oripov, B.Boymetov, N.Tolipov, S.Abdurasulov, A.Sulaymanov, R.Rajabov, D.Ergashev va boshqalarning pedagogik, metodik kitoblari va metodik qo'llanmalarida yoritib berganligini ko'ramiz. Lekin, hanuzgacha o'quvchilarni o'qilgan kitoblari asosida, mifologik mavzularda grafik rasmlar ishlash masalalari to'liq o'z yechimini topgan emas. Shularni hisobga olib mavzuni "Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash usullari" deb belgilagan edik.

**Tadqiqotning maqsad:** Tasviriy sanat darslarida grafik tasvirlar ishlash usullarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning vazifalari:** -Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashga doir mavzularda suratlar yaratish metodikasini rivojlantirish;

- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning ahamiyatini ochib berish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash yaratishning muammolarini ko'rsatish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning o'ziga xos tomonlarini yoritish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash haqida tushunchalar berish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash rassom asarlari va ularning tahlilini keltirish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash yaratish shakl va usullarini takomillashtirish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash masalasini yoritish.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash asarlarni yaratish bosqichlarini ishlash.

**Tadqiqotning obyekti:** Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashni o'rganish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at darslari.

**Tadqiqotdan ko'tiladigan natija.** Malakaviy bitiruv ishining o'zi grafik tasvirlash usullarini ko'rsatib berish maqsadida bajarildi. Bu tasviriy san'at darslarida qalamtasvir, qoramalar chizish, gravyura, litografiya kabi grafika asoslarini tushuntirish va uni maktab o'quvchilariga chuqurroq o'rgatish masalalarini qamrab olgan. Bunda maktab o'qituvchilari uchun grafik rasmlar chizishning yo'llari, dars ishlanmasi va rasm ishlashning ketma-ketligi ko'rsatiladi.

Grafikada rasm chizib uning ishlanish usul va metodlari bayon etilgan. Shu kabi grafik rasm chizish hamma tasviriy san'at ta'limining asosi ekanligi isbotlandi.

**Tadqiqotning metodlari:** tahlil, kuzatish, amaliy, dars o'tish va o'rganish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** Agar;

- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning ahamiyati ochib berilsa.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning muammolarini aniqlansa.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning o'ziga xos tomonlari yoritilsa.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlangan rassom asarlari va ularning tahlili keltirilsa.
- Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning shakl va usullari ishlab chiqilsa.

**Yangiligi va amaliy ahamiyati.**

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash ahamiyatining ochib berilganligi.

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning muammolarini aniqlanganligi.

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning o'ziga xos tomonlari yoritilganligi.

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashdagi rassom asarlari va ularning tahlilining keltirilganligi.

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning boshqa fanlar bilan bog'lanishini aytilishi.

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning shakl va usullari ishlab chiqilgani.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar tanqidiy tahlili.**

Tasviriy san'atning grafik rasm chizish turi asosiy bo'lib hisoblanadi. Chunki qalam bilan birinchi rasmlar chizib olish va uni ranglash yoki o'yish va xakozalar keyin bajariladi. Grafikaning ham o'ziga oid turlari bor. Shularning barchasi asosida asarlar yaratgan rassomlar ko'p. Ularning asarlarini ta'lim tizimiga olib kirgan olimlar, metodistlarning asarlari bor.

Rassom va pedagog I.Ikramov grafikchi sifatida tanilgan. Uning birinchi o'zbek tilida "Rasm darsi" nomli maqolasi e'lon qilingan edi. Unda rasm chizishning zarurati bayon etiladi. Professor R.Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" 2004, O.K.Apuxtin "Tasviriy san'at asoslari" 1964, O.Kosterin "Uchebnoy risovaniye" 1980 kabi kitob, darsliklar chiqqan. Ularda grafik rasm haqida aytiladi. Bularning hammasida ham umumiy ko'rinishda berilgan. Keyingi vaqtlarda B.Boymetov, S.Abdurasulov, N.Tolipovlar tomonidan kollej o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Hammasida ham grafik tasvirlar tasviriy san'atning asosi ekanligini e'tirof etishgan. Biz ham uni birinchi o'ringa qo'ygan holda ishimizni grafik tasvirlashning muhimligini va o'qitilishini takomillashtirishga qaratdik.

**Tuzilishi:** Kirish, uch bob, yetti fasl, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyxati va ilovadan iborat bo'lib 58 betni tashkil etadi.

## **I bob. Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning pedagogik tomonlari.**

### **1.1 Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlashning ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasida barcha soxalarda bo'lgani kabi muhim o'zgarishlarni sodir etdi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida 1997 yili "Talim to'g'risida" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinib shu asosida uni islohatlarini amalga oshirdi. Mana shu oliy ta'lim va kasb hunar ta'limini, hamda umumiy o'rta ta'limni ham butunlay isloh qilish ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Islohatlarimizning bosh maqsadi eskidan qolgan sarqitlardan butunlay holis bo'lish edi. Shuning uchun tez vaqtlar ichida shunday muhim natijalarga ham erishdik. Endi bu kabi muhim masalalar o'qitish tizimini uzluksizligini taminlashga xizmat qilmoqda. Prezident I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli maruzasida 1997 yil 29 avgust Oliy Majlisning IX – sessiyasida talim sohasiga katta e'tibor berganligi natijasi deb bilamiz. Ta'lim sohasida o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos bo'lish, yuksak manaviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning sifatini xalqaro standart talablari darajasiga yetqazish kerak edi. Bugungi kunda shu qo'yilgan talablarga dadil qadam tashlab bormoqda.

Tasviriy san'at o'qitishning muhim jihatlarini hisobga olib, ta'limiga oid bajarilgan ishlarni tanlab olish masalalari ko'plab asarlarni yuzaga kelishiga ham sabab bo'lganligini aytish mumkin. Grafik rassomlarning ishlari va ularning tahlili bo'yicha chiqqan metodik asarlarni topish ancha mushkul masalalardan. Qadimda ham grafik asarlar chizilganmi? Bu savolning o'zini hali hiech kim qo'ymagan. Ammo tosh va qoyalardan topilgan shu qadimgi ko'plab suratlar graqik tasvirlar edi. Grafikada ijod qilish rassomlarning asosiy ishi. Shunday bo'lsada grafik asarlarni keyingi vaqtlarda ko'p uchratmaymiz. Tasviriy san'atning grafik rasmlar chizish ishlarini amalga oshirgan ko'plab O'zbekiston xalq rassomlari Iskandar Ikramov, O'rol Tansiqboyev, Rahim Axmedov, Ro'zi Choriyev, Qutlug' Basharov, Vilademir Vinediktov, Qaydalov, S.Subxonov, N.Ten, Te'Iman Muhammedov, Anvar Mamajonov, Akmal Nuriddinov, N.Kolonov va boshqalar turli grafik rasmlar yaratib keldilar. Grafik rasmlar chizish bilan yaratilgan asarlarning asosiy qismida xalqimizning hayoti aks ettirilib unda shoirona ko'tarinkilik tasvirlanadi. Shuningdek, tasviriy san'atning grafika sohasida ijod qiladigan ko'p ham rassomlarni uchratmaymiz. Chunki, bunday asarlar yaratish ko'pincha kitoblarni bezatish, gravyura, linagravyura, ksilografiya tarzida bajarilib inson ruhiy olam bilan birga tasvirlanadi. Bunday asarlarning bir qismini miniatyurachi rassomlarning ijodida uchratishimiz mumkin.

Grafik tasvirlashga doir fikrlar pedagogika fanlari doktori, professorlar R.Xasanov, S.Bo'latov, pedagogika fanlari nomzodlari, dosent B.Oripov, B.Boymetov, N.Tolipov, S.Abdurasulov, A.Sulaymanov, R.Rajabov, D.Ergashev va boshqalarning pedagogik, metodik kitoblari va metodik qo'llanmalarida yoritib berganligini ko'ramiz. Lekin, hanuzgacha o'quvchilarni o'qilgan kitoblari asosida, mifologik mavzularda grafik rasmlar ishlash masalalari to'liq o'z yechimini topgan emasligini ko'ramiz.

Rasmlar chizishda grafik tasvirlar har qanday tasvirning asosi ekan buni mukammal egallash orqali tasviriy san'at asarlari yaratiladi. Albattda grafik rasmlar ham oddiy narsalarning rasmini chizishdan boshlab keyin murakkab

ko'rinishlarga o'tildi. Shu kabi Odam boshining tuzilishi o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Har bir odam boshining kalla suyagi tuzilishi va tashqi ko'rinishi, plastikasi o'zining betakror xususiyatlariga yega. Shu bilan birga boshning umumiy shakli, uning konstruktiv-anatomik asosi bir xilda bo'lgan tuzilish qonuniyatiga asoslanadi. Inson boshini to'g'ri tasvirlash uchun rasm chizuvchi uning shakli, kalla suyagining qismlari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bilishi hamda tasvirlash jarayonida olgan bilimlarini qo'llay olishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun u juda ko'p mashq qilishi zarur.

Buyumlarni tasvirlash san'ati, boshqa aniq fanlar kabi, fikrlab chizilayotgan narsani chuqur tahlil yetib, uni so'z orqali yemas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo yetadi.

Tasviriy san'at ustasi va rus pedagoglaridan biri P.P.Chistyakov aytganidek, tasvirlash-fikrlash demakdir. U shogirdlariga doimo bunday deb ta'kidlagan: "Hyech qachon fikrlamay rasm chizmang, har doim oldingizga maqsad qo'ygan holda gapirib tasvirlang, bu yerdan - bu yergacha".

Boshning umumiy shaklini aniqlash, chiziqli – konstruktiv tuzilma hosil qilish va hokazo tamoyillarni o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar kerak. Talabalar, odatda, bunga rioya qilmaydilar, ular uchun bu mashqning hojati yo'qdek ko'rinadi. Ularga maxsus mashqlar kerak yemasdek tuyuladi va mazkur mashqlarni bosqichli rasmlar chizish paytida ham qilaversa bo'ladi, deb o'ylaydilar. Lekin bosqichli rasm chizish paytida bu rasmlarga ko'p vaqt ajratilmaydi va talaba uni o'zlashtirib ololmaydi. Natijada talaba ishni o'z holicha davom yettiraveradi va malakasi oshmay qolaveradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlari va uni tasvirlash qoidalarini o'rganishda talaba, yeng avvalo, tasvirlashning dastlabki bosqichida kechadigan tahlil usulini, boshning umumiy shaklini tasvirlashni o'zlashtirib olishi zarur. Garchi akademik rasm chizishda ishning har bir bosqichi qisqa davom yesada, talaba maxsus mashqlar yordamida har bir bosqichni puxta o'zlashtirib olishi kerak. Quyida bosh shakli tuzilishini tahlil qilish va tasvirlash usulining mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Bosh shaklini idrok qilishda ham rassomga yorug'lik yordam beradi. Nur bosh usti bo'ylab yoyilib, rassomga uning plastikasini ko'rish imkonini beradi. Dastlab bosh shakli juda tez, umumlashgan holda idrok yetiladi: kalla go'yo shardek, bo'yin silindrik, burun prizmadek, ko'z sharsimon qobiqdek ko'rinadi. Faqat diqqat bilan qaragandagina rassom boshini yahlit ko'radi, ham uning qismlari plastik tavsifining nozik tomonlarini ilg'ay boshlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, inson dastlab predmetning umumiy shaklini, shundan keyingina uning bo'laklarini idrok yeta boshlaydi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rib idrok yetish jarayonining beshta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi:

1. Predmetning fazodagi holati bilan uning umumiy nisbatlarini taxminiy baholash o'rtasidagi farqni ajratish.
2. Shaklni rakursda turishini bilish.
3. Perspektiv tomonlarining o'zgarishini farqlash.
4. Shaklni, uning detallari farqlanmay berilganda, bir xil umumiy tarzda idrok yetish.
5. Shaklni uning detallari bilan to'liq holda idroklash.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi, birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini ko'rsatishi zarur.

Uyg'onish davridayoq rassomlar ushbu zaruriyatni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Alberti "Rangtasvir to'g'risida uch kitob" asarida shunday yozadi: "Biz biror narsaga qarar yekanmiz, u fazoda ma'lum joyni yegallab turganini ko'ramiz. Keyinchalik, ushbu jismga sinchiklab qarab, uning barcha ko'p sonli bo'laklari uyg'unlashib ketganligini seza boshlaymiz.

Har qanday predmetning shakli ko'p sonli yuzalardan iborat. Rasm chizuvchining vazifasi bu yuzalar ma'lum shaklni hosil qilgan holda o'zaro qanday uyg'unlashib ketganini to'g'ri tushunishdan iborat. Lekin bu shaklni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun talaba katta, uch o'lchamli jismning real ko'rinishini ilg'ab olishi, ya'ni o'z idrokini fazodagi ko'rinish bilan qog'oz

sirtidagi ko'rinishiga moslay ola bilishi kerak. Bosh shaklini tasvirlashga kirishishdan oldin chizuvchi, avvalo, perspektiva nazariyasini bilishi, tasvirlash jarayonida yesa perspektiva qoidalaridan foydalana olishi zarur.

Ko'p yillik amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, oddiy geometrik jismning perspektiv tasvirini chizish unchalik qiyin yemas, lekin odam boshi kabi murakkab shaklning perspektiv tasvirini chizish ancha murakkab ish. Shuning uchun ta'limning pedagogic prinsipi-oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka prinsipidir.

Uyg'onish davri rassomlari boshni tasvirlashni o'rgatishda yeng oddiy geometrik shakllarni qo'llashdan kelib chiqqanlar, ya'ni ham yaxlit bosh, ham uning har bir qismini geometrik asosda ko'rish va tasavvur qilishni o'rgatganlar. Rasm chizuvchi ana shu prinsipga amal qilib, boshning umumlashgan shaklini tasavvur qilishi kerak. Odam boshi shaklini tasvirlashni tahlil yetish va chizishning bunday usulidan ko'p rassomlar foydalanganlar. Amaliyotda isbotlanganki, kesib ishlash usuli tasvirlashning perspektiv qurilishi qoidasini o'zlashtirib olishni ancha yengillashtiradi. Uyg'onish davridan keyin to hozirgacha bu usuldan rassom - pedagoglar foydalanib kelmoqdalar.

Chiziqli-konstruktiv tasvirni belgilab olib, diqqat bilan butun bosh va uning har bir qismi shakllari xarakteriga aniqlik kiritishni boshlaymiz.

Chiziqli konstruktiv rasmni chizish paytida yorug'lik manbai o'rnini almashtirsak-da, shaklning konstruktiv asosi o'zgarmaydi.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, bosh shakli konstruktiv qurilishi sxemasini yaxshi bilib olgan talaba keyinchalik tirik boshning akademik rasmi va ijodiy portretni chizishda hych qiynalmaydi. Bosh shakli konstruktiv qurilishi qonuniyatlarini mustahkam yegallab olishi uchun yoshlarga chiziqli- konstruktiv qurilish bo'yicha maxsus topshiriqlar bajartirish katta ahamiyatga yega.

Bosh shakli tuzilishining chiziqli-konstruktiv tasvirini bajarish borasida beriladigan maxsus topshiriqlar talabalarga o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, ularni rasm chizish paytida doimiy ravishda fikrlash va mulohaza yuritishga o'rgatadi, yorug' - soyalarni ko'r-ko'rona, passiv

ko'chirishdan qaytaradi. Chunki bunday mashqlar yordamida rasm chizuvchi shakl tuzilishi doimiylicha qolishini tushuna boradi.

Bosh shakli tuzilishi qonuniyatlarini to'liq va har tomonlama o'ragnish uchun talaba bunday topshiriqlarni nafaqat naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan bajarishi zarur. U amaliyotda bunday mashqlar zarurligiga ishonch hosil qilishi, shaxsiy tajribasida realistik rasm san'atini yegallashda ular qay darajada yordam berayotganligini his qilishi kerak. Bunday mashqlar talabaning anatomik bilimini chuqurlashtirishi bilan birga ijodiy qobiliyatini ham shakllantiradi.

### **1.2 Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash muammolari.**

Tasviriy san'at darslarida grafik tasvirlash masalalari bo'yicha bajarilgan asarlarni, metodik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki grafik ishlarning hammasi har qanday rassom ishlarining asosini egallasada, unga doir asarlar ishlashga harakat qilayotgan rassomlar kamayib ketgan. Chunki bozor iqtisodiyoti davrida bozor bop ishlarining bozori chaqqon bo'ldi. Grafikchi rassomlarning ham asosiy qismi rangtasvir asarlarini yaratishga o'tishib olmoqda. Bunday holatlarning borligi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sababi, kitob grafikasida ishlaydiganlar zamonoviy shu kitoblarning mazmuniga mos ishlar, asarlar bajaradilar. Plakatlar ishlaydigan rassomlarning ishlarida ham ommoviy madaniyatni targ'ib qilish uchun harakat qilish bo'ladi. Grafikaning mavzuli asarlar yaratishga bag'ishlangan asarlar seriyasini yaratish masallarida kamchiliklar sezilib qolmoqda. Bu masalalarni "San'at" jurnalidagi ba'zi-bir maqolalarda ko'rib ajablanish mumkin.

Tasviriy san'atning bu alohida turi bo'lgani bilan hamma turlarida ijod qiluvchi rassomlarning ishida bo'ladigan ijodiy jarayondir. Maktab dasturida ham grafikada, qalamda rasm chizish uchun alohida soatlar berilgan bo'ladi bu ham boshlang'ich sinflarda. Yuqori sinfga o'tishi bilan turli rangtasvir, dekorativ rasm chizish, kompozisiya asoslariga oid ishlarni bajarish, haykaltaroshlik va boshqalar. Bularning hammasida ham birinchi navbatda qalamda rasmini chizib olishadi. Keyin uni ranglaydi, yasaydi, tasvirlaydi.

Ko'rinib turibdiki, grafik rasmlar hamma tasviriy san'at turlarida qatnashadi.

Yetuk rassom-pedagog D.Kardovskiy rasm chizish prinsiplari va o'qitish uslublari haqida shunday degan yedi: "Xo'sh, shaklning o'zi nima? Bu geometrik jismlar, jumladan: kub, shar, silindr va hokazolardir. Ular u yoki bu xarakterga yega bo'lgan jismlardir. Tirik naturalarning shakllari, albatta, to'g'ri geometrik shakl bo'la olmaydi, lekin aslida ular ham ushbu geometrik shakllarga yaqin turadi."

Bosh tuzilishining umumiy shakli nima? Bu o'z ko'rinishi jihatidan tuxum shaklini yeslatuvchi uch o'lchamli hajmli jismdir. Bosh rasmini chizishni o'rgatishda hamma o'qituvchilar talabalar diqqat-ye'tiborini shakl qurilishining ana shu xususiyatiga qaratganlar. Preysler, Losenko, Sapojnikov, Kardovskiy va boshqalarning tajribasi shundan dalolat beradi. Rassom-pedagoglar odam boshini tasvirlashni o'rgatar yekanlar, ishni doim uning tuxumsimon shaklining tahlilidan boshlaganlar. A. Solovev, G.Smirnov, Ye.Alekseyeva bosh rasmini chizishni tuxumsimon massa tusini tasvirlashdan boshlashni tavsiya yetganlar. Ustoz rassomlar boshlovchi rassomlarga dastlab boshning umumiy shaklini, shundan so'ng asta-sekin bo'laklarini tasvirlashni o'zlashtirib olishni tavsiya yetganlar.

"Kesib ishlash" usuli qog'oz yuzasida bosh shaklining ham umumiy, ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bu usul talabalarning ye'tiborini tashqi bo'laklarga ( qoshlar, kipriklar va hokazo) yemas, balki katta shaklning asosiy mazmuniga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish qiyin yemasdek tuyulsa-da, uni rasmda ko'rsata olish ancha murakkab ishdur. O'tgan asrdagi fransuz rassomlari aka-uka Dyupyular bosh rasmini chizishni o'rgatishda shu usuldan foydalanganlar. Bosh shaklini tahlil qilar yekanmiz, umumiy ko'rinishda uning tuzilishi ma'lum qonuniyatlarga yegaligini ko'ramiz.

Bosh shaklini hajmini tasvirlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, boshning ikkita asosiy qismi mavjud. Bular : kalla suyagining sharsimon shakli va taqasimon jag' suyagi shaklidir. Ko'pchilik rasm chizuvchilar soqolli kishi boshini tasvirlashda bu xususiyatni unutadilar. Bu o'rinda dahan, ya'ni jag'ning

pastki qismi kalla suyagidan uzoqlashib qolgandek, havoda muallaq turgandek tuyuladi. Rassom kalla suyagining umumiy tuzilishini hisobga olib, jag'ning ostki qismini kalla suyagining asosiy so'ngaklari bilan to'g'ri tutashtirishi lozim.

Bosh shaklini va uning tarkibiy qismlarini tahlil yetishda davom yetib, katta shaklni bo'rttirib chiqarish bilan bog'liq yana bir qancha qonuniyatlarni ko'rsatib o'tish zarur. Masalan, burun shakli asosida prizma yotadi. Burun shakli tuzulishining bu qonuniyatini bilgan rassom uchun uni qog'oz yuzasida tasvirlash yendi unchalik qiyin yemas. Rasmda burun shaklining perspektiv ko'rinishini berish ancha murakkab ish. Prizmaning perspektiv ko'rinishini chizish hatto, boshlovchi rassomga ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, shakl va uni yuzada ifodalashning bunday tahlil usulidan foydalanish rassomga shakl tus jihatidan ham hal yetishga yordam beradi. Qog'oz sirtidan to'rt yuza bilan chegaralangan burun prizmasini belgilab olgan rassom darhol tus alomatlari – nur, soya, yarim soyalarni ajratib oladi va shundan so'ng o'ziga qarab burun xarakterini aniqlaydi va shaklning mayda bo'laklarini modellashtirishga kirishadi. Ko'z shakli shar shakli bilan bir xil va uning maxsus adabiyotlarda “ ko'z soqqasi”deb yuritilishi bejiz yemas. Lekin bosh rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki, ko'z soqqasining uchdan bir qismigina tashqarida ko'rinadi. Bundan tashqari, ko'z soqqasi va ko'z kosasiga o'tishda qovoqlar mo'tadillasha boshlaydi va shakl ishlash bosqiroq bo'lishi kerak.

Boshni tasvirlashning dastlabki bosqichida “kesib ishlash” usulidan foydalanganda bo'rttirib yuborish va “ kubizm” ga berilib ketish kerak yemas. Bunday holatni ba'zi rasm chizuvchilarda kuzatish mumkin. Bosqichli vazifa ishlashda shakl tuzishning yo'nib ishlash bosqichi unchalik ahamiyatli o'rinni yegallamaydi, rassomga yordam beradi, xolos.

“Kesib ishlash” usulidan foydalanib tasvirlash rasm chizuvchida yeng asosiy narsani ko'ra bilish, ko'ringan narsani mantiqan idrok yetish va mazkur plastik obrazni ochiq tasavvur yetish malakasini orttiradi. Agar rassom bosh shakli xususiyatlarini idrok yeta olmasa va tasavvur qilmasa, faqat o'z tuyg'ulari bilan cheklansa, u holda u naturadan passiv tarzda nusxa ko'chirishga, tashqi

ko'rinishni shunchaki o'xshatib qo'ya qolishga majbur bo'ladi. Rassom obrazli tasavvur qilib ishlamas yekan, umumlashtira olmaydi. Idrok yetish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bunday tasavvur borliqdan olingan surat, naturaning umumlashgan obrazidir. Psixolog B. Lomov tasavvur qilish jarayonini tushuntirib, u yoki bu obyektни tasavvur yetish uni ko'p martalab idrok yetish jarayonida shakllanadi, deb ta'kidlaydi. "Idrok yetishni tasavvur qilishga o'tish tufayli obraz tuzilmasi o'zgaradi. Obyektning bir alomati xuddi bo'rttirib ko'rsatiladigandek, kuchaytirilayotgandek, boshqalari yesa qorong'uda, ye'tibordan qolib ketayotgandek va zaiflashayotgandek tuyuladi. Boshqacha aytganda obraz sxematizmi sodir bo'ladi." – deb yozadi u. Shunday qilib, rasm chizish san'atini yegallashda "kesib ishlash" usulining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi faqat badiiy amaliyotda yemas, balki psixologiya – pedagogika fanlari tomonidan ham isbot yetilgan. "Kesib ishlash" usuli rassomga tasvirlashning uslubiy bosqichlarini o'rgatibgina qolmay, balki realistik san'at "tili"ni yegallashga ham yordam beradi. Talaba yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlash va uni rasmda to'g'ri ifodalashga intilganda u obyekt obrazini grafika vositalari bilan yaratishni o'rganadi, binobarin, rasm "tili" ga yega bo'ladi.

Lekin rasmda tahlil va ifodalash usulini o'rganish talaba uchun ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. U "katta shakl" tuzilishining umumiy ko'rinishini tasvirlar yekan, odatda, boshning chiziqli tashqi ko'rinishini chizish bilan cheklanib qoladi, na bosh shaklining xarakteri va na uning hajmini o'rganmay turib, bir yo'la bo'laklarini tasvirlashga o'tib ketadi. Shu bois u shakl asosini yuzaga chiqarmay turib, detallarini-burun, ko'z, lablarni chiza boshlaydi.

Shuning uchun ham , yuqorida aytib o'tganimizdek, "kesib ishlash" usuli bilan katta shakl ifodasini berish yo'lini o'zlashtirib olish uchun maxsus mashqlar qilish zarur bo'ladi.

Rassom oynaga qarab o'z rasmini chizsa, bu usul yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'rinda diqqat tortadigan mayda detallarni ko'chirishdan voz kechib, faqat hajmning asosiy massasini chizishga ye'tiborni qaratish, iroda va berilgan

vazifani bajarishga ishonch hissi talab yetiladi.

Talaba boshning asosiy shaklini tasvirlashni o'rganib olgach, shakl tarkibini yanada chuqurroq o'rganishga o'tadi. Odam boshining shakli juda murakkab va u konstruktiv asos bilan belgilanadi. "Konstruksiya" deyilganda biz "tuzilish", qismlarning o'zaro joylashuvi, shakl tarkibini, "konstruktiv jihatdan uyg'un" deganimizda yaxshi tasvirni nazarda tutamiz.

Odam boshini tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish uchun shaklning konstruktiv jihatdan ko'rinishini ko'rish va uni rasmda ifoda yetish qonuniyatlarini bilish kerak.

Odam boshini chizishda rassomdan asosiy konstruktiv qurilish qonuniyatlarini bilish va rasmda chiziqli – konstruktiv asosni ifodalay olish talab yetiladi.

Odam boshi shaklining chiziqli-konstruktiv tasviri quyidagilardan iborat: dastlab tussiz va yorug' soyasiz chiziqlar bilan boshning umumiy shakli tasvirlanadi. Shundan so'ng boshning old qismi ustidan profil chizig'i o'tkaziladiki, bu chiziq uchta teng qismga ajraydi va bu chiziqlar ustidan sochlar qoplamasi, qosh usti yoylari, burun va dahan asosi konstruktiv chiziqlari o'tkaziladi. Zarur mo'ljallar belgilangandan so'ng bosh detallari: burun prizmasi, ko'zlarning sharsimon shakllari, lablar va dahanning umumlashgan shakllarini belgilab olamiz. Bularning hammasi zarur tuzatishlar kiritilishi mumkin bo'lgan bitta chiziq bilan tasvirlanadi. Shaklning konstruktiv asosini tasvirlashda qo'l keladigan chiziqlar rassomga shakl qurilishi qonuniyatlarini to'g'ri qo'llashga yordam beradi.

### **1.3. Qalamtasvirda rasm ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.**

Tasviriy san'atda grafik rasmlar chizish fanning asosini tashkil etadi. Shuning uchun barcha rasmlar oldiniga qalamda eskiz yoki nabroskalar tarzda ishlab olinadi. Rasm chizish mashg'uloti tasviriy san'atning asosi bo'lib, tabiatdagi barcha obektlarning fazoviy shakllar tekislikda yoki sirtlarda tasvirlashdan iborat. Bunda tasviriy vosita bo'lib asosan chiziqlar va shtrixlar, ya'ni turii yo'g'onlikdagi chiziqlarning kesmalari xizmat qiladi. Chiziq hosil

qiluvchi qurollarga qalamlar, mo'yqalamlar, bur, ko'mir, pastel, flamaster, pero, hamda kesish, tirnash o'yib olish bilan chiziqlar hosil qiluvchi asboblarni kiradi.

Rasm chizish - tasviriy san'atning yeng qadimgi turi hisoblanadi. Ibtidoiy odamlar tig'li buyumlar bilan tosh va g'or devolariga turli xil tasvirlarni chizganlar. Yeng qadimgi avlodlarimiz so'lashuv qobiliyati yuzaf kelgunga qadar hayvolarni rasmini tasvirlash orqali o'z tasavvuridagi fikrlarni bir-birlariga bayon qilganlar barori kelgan ovdan tasirlanib, o'zlari bilmagan holda kelajak avlodlar uchun nishonalar qoldirganlar.

Rasm chizishni o'rganish rassom, haykaltarosh, grafikachi, me'mor, dizayner, dekorativ san'at ustasi mutahassisligining asosiy qismini tashkil yetadi.

Rasm chizish texnikasini yegallash gravyura ,haykaltaroshlik yoki tasviriy san'atning boshqa turlaridagidek murakkab texnik ijroni talab qilmasada, baribir ko'p chizish,o'rganish kerak bo'ladi. Lekin rasm chizishni barcha xohlovchilar ham o'rganib olishlari mumkin. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq, qunt va toqat bo'lsa bas. Bunday qiziqarli va maroqli mashg'ulotni rasm chizishga ishtiyoq bilan to'lib toshgan bolalikdan boshlansa,nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Rassomlar rasm chizish uchun asos bo'lgan har bir obektning -odam va barcha jonivorlarni, uy-ro'zg'o va texnika buyumlarni, me'morchilik binolari va qurulish inshootlarini,tabiat va borliqning boshqa yelementlarini natura deb ataydilar.

Rasm chizish uchun kerakli narsalar taxt qilinib,naturalar tanlangan bo'lsada chizishni boshlashga shoshilmaslik kerak. Awaliga qalamni to'g'ri ishlata bilishni o'rganish, rasmda asosiy ma'no va ifodani ocl beruvchi chiziqlar to'g'risida qisqacha ma'lumot olish natura kompozisiyasini to'g'ri tanlay bilishni o'rgan tavsiya yetiladi.Rasm chizishda chiziq va chiziqchalar asosan qalamni ikki xil usulda ishlatish bilan bajariladi

Rasm chizishda chiziqlar bir joyda qalin holda ishlatilsa,bora-bora bu chiziq ingichka bo'lib, keyin ko'zi ko'rinmay yo'qolib borishi mumkin.Naturalarning shakllariga mos to'g'ri yoki yegri chiziqlar uning tashqi ko'rinishini bo'rttirib hajimga yega yekanligini ko'rsata boradi.Go'yo tekis qog'ozda u bo'rtiq shaklga yega bo'l boradi.

Qalamtasvirda yaxshi natijalarga yerishish uchun, tasvirlashning asosiy qonun qoidalarini puxta yegallanr zarur bo'ladi. Shu sababli qalamtasvirda ishlashning asosiy qonun - qoidalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. Temir yo'l relslari, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko'rishimiz mumkin. Hayotda o'zaro parallel bo'lgan relslar hych qachon to'qnashmasalarda, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.

Buyumlarni tekishkda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: "Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga yega bo'lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo'ysunadi". Faqat grafik tasvirlarning miniatyura chizish san'atida bunday qoidalarga ko'p ham amal qilinmaydi. Ammo tasviriy san'atning boshqa turlarida perspektiva qonuniyatlariga to'la amal qilish bilan asarlar yaratiladi.

Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinmas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash "alifbo"laridan bo'lgan "surat tekisligi", "buyum tekisligi", "ko'rish maydoni", "ko'rish nuqtasi", "ufq chizig'i" kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo'shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi ko'rinadi. Shundan keyingina

rassom uni idrok yetib, tasvirlashga o'tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o'rtasida vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytiladi. Stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi vazifasini o'tashi mumkin.

Ko'rish maydoni va ko'rish burchagi chizuvchining ko'rish vaqtida tasvirlanayotgan buyumni qamrab olishidir. Tasvirlanayotgan obyekt uzoqlashib borgan sari ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu yesa tasvirlanayotgan obyektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi. Lekin, obyektдан juda katta masofada turib, undagi hamma bo'laklarni va hajmlarni to'laonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan obyektga yaqin masofada turib ham ushbu obyektning hamma qismlarini ko'z bilan ilg'ab olish mushkul. Tasvirlash jarayonida chamalash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab yetadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko'paytirilganiga teng masofada turib rasm chizadilar.

Ufq chizig'i deb, ko'z balandligidan o'tadigan nurga aytiladi. Qog'ozni gorizontol holatda ko'zimiz darajasigacha ko'tarib, ufq chizig'ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig'idan yuqorida.
2. Ufq chizig'idan pastda.
3. Ko'zimiz nuri balandligida (ufq chizig'i balandligi iarajasida).

Ufq chizig'i har doim ko'z nuri balandligidan o'tad. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko'tariladi. Pastga tushsak ufq chizig'i ham pastga tushadi.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishiga aytiladi. Fazo-tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta'sirida o'zgarishi mumkin. Masalan: havo namligi, atmosfera bosimining o'zgarishi, havodagi chang-to'zon ta'siri, havo bulutli yekanligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo

bo'shlig'ida qanday joylashgani rang, nisbat, tus va undagi alohida bo'laklarning (yaqqol yoki xira) ko'rinishlariga keskin ta'sir yetadi.

Fazo perspektivasi obyektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligi (yertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz) hamda atmosfera o'zgarishiga (quyoshli yoki bulutli) qarab ham o'zgaradi.

Fazo perspektivasining bir necha asosiy qoidalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Rassomga yaqin bo'lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilari yesa umumiy ko'rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni yesa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo'shlig'ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo'lsa, shunchalik xira ko'rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to'g'ri ko'rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni biroz yengil, oldingi qatordagi buyumlarni yesa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo'lib ko'rinadi, uzoqdagilari yesa xiraroq ko'rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar atmosfera bosimi ta'sirida siyohrang, havorang va och tusda ko'rinadi. Fazo perspektivasini yanada kuchliroq ko'rsatish uchun yaqin masofada yaqqol ko'rinib turgan buyumlarni aniq, uzoqdagilarini yesa ochroq tusda tasvirlash darkor.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o'z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo'lib ko'rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomga yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni yesa umumiy tarzda, xiraroq qilib tasvirlashni talab yetadi. .

Fazo perspektivasining ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo), amal qilishi shart bo'lib hisoblanadi.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlanayotgan buyum sodda yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, u konstruktiv tuzilishga yega. Konstruksiya so'zi - tuzilish (qurilish) ma'nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda bu qonunga amal qilishi lozim. Buyumni haqqoniy tasvirlash uchun uning chiziqli konstruktiv tuzilishiga ye'tibor berish maqsadga muvofiq. Har qanday buyumni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilishga rioya qiling. Quyida uy jihozlari chiziqli konstruktiv usulni amalda qo'llagan holda qanday yaxlitlikda chizilishini ko'rish mumkin.

Buyumning konstruktiv tuzilishini chizish uning asosiy qismlaridan yordamchi chiziqlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to'g'ri tasvirlash perspektiva qonun-qoidalariga to'liq amal qilishni taqozo yetadi. Gips ko'zaning hajmini to'g'ri chizish jarayonida buyumning asosi, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalari, buyumning tekislikdagi holatiga asosan, perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv tuzilish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan yengil tasvirlashni, bizga ko'rinar-ko'rinmas tomonlarini asosli ko'rsatishni taqozo yetadi.

Buyumlar hajmidan tashqari, balandligi va yeniga yegadir. Bunga buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil topgan qo'yilmaning o'z nisbatlaridan tashqari, katta-kichikligiga qarab, o'zaro nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb yetadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, oddiy ko'zani olaylik. Uning balandligi yeniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoninining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab, rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil yetilgan natyurmort yoki boshqalarning o'zaro nisbatlarini to'g'ri topish mumkin.

Hajm har bir buyum o'z hajmiga yega. Uning hajmi qismlari, balandligi, bo'yi va yenining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri to'rtburchaklardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Yegri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindr va boshqalar) tekis

yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Bu shakllar kontur chiziqlar vositasida chiziladi. Buyum shaklini aks yettirishda kontur chizig'ining ahamiyati katta. Buyumning tuzilishi, nisbatlari va boshqalarni tasvirlashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyum to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmi to'g'ri chiziqlar vositasida chiziladi. Uning konturlari yegri chiziqlardan iborat bo'lsa, hajm yellips, aylana shakllar orqali tasvirlanadi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash unga to'g'ri rang berish orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatoga uol qo'yadilar. Talabalar kubning hajmini yorug'-soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks yettirish uchun kubning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda qirrali buyumlar bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan farqlanadi. Kub yoki boshqa qirrali buyumlarning soya qismidagi qirrasi yorug' qismidagi yuzadan tus jihatdan kuchliroq yekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shakldagi buyumlar hajmi yellips, aylana chiziqlar orqali chiziladi. Dumaloq hajmga yega buyumlarning yekvator qismi tus jihatdan kuchliroq tasvirlanadi

Qirrali buyumlarda bo'lgani kabi, sharsimon buyumlarning chekkalari ham quyuq konturda chizilmaydi. Uning turgan holatiga ko'ra yorug' va orqa fondagi soyalar chegarasi bor xolos.

Yevropa realistik tasviriy san'atidan farqli ravishda, sharq tasviriy san'ati o'zining betakrorligi bilan ma'lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan Sulton Husayn Murzo portretini olaylik. Ushbu portretning hajmdorligi yorug'-soya qonuniyatlariga va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo'lsa-da, lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonini mohirona tasvirlagan.

Tasviriy san'at qonun qoidalari asosida chizilgan rasmlar har tomonlama ko'rkam va chiroyli chiqadi. Shuning uchun rasm chizish jarayonida tasviriy san'at qonun-qoidalarini mukammal yegallagan bo'lish kerak.

Qalamtasvirda texnik mahorat, nafaqat uzoq muddatli o'quv mashg'ulotlari, qisqa muddatli tasvirlar, qoramalar ishlaganda, balki grafika san'atining qadimgi yetuk namoyondalari asarlaridan nusxa ko'chirganda ham shakllanib boradi. Bizgacha yetib kelgan qalamtasvirning turli-tuman texnik uslublari asosan Italiya uyg'onish davridan ma'lum bo'lib, bu davr rassomlari tomonidan tush, turli xil rangli siyohlar, akvarel bo'yoqlari, Ko'mir qalamchalari va shu kabi tasvirlash vositalari keng qo'llanilgan. Quruq materiallardan ruxli, kumushli va shu kabi boshqa metall shriftlar, grafit qalamlar Italiya qalami, sangina, mel, pasteldan foydalanilgan. Mo'yqalam, o'rdak pati, qamish qalamchalar singari tasvirlash vositalarida gruntlab tus berilgan turfa xildagi rangli qog'ozlardan keng ko'lmda foydalangan holda asarlar yaratganlar.

Agar rasm chizishni o'rganishni maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, bu maqsad yo'lida tinmay izlanish kerak. Chizilgan rasmlarni yaxshilab o'rganish, yaxshi chizadigan kishilar chizayotganlariga diqqat bilan kuzatish lozim.

Barcha manbalardan olingan pand-nasihat, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalarga yondashib to'g'ri fikr chiqarishga o'rganish va bulardan xato kamchiliklarni tuzatishda foydalanish lozim. Rasm chizishni o'rganishda, albatta qalamtasvirda rasm ishlashning asosiy qonun-qoidalarini yesdan chiqarmaslik kerak. Perspektivaning chiziqli, xavo va rang turlari bo'lib borishini biz yuqorida keltirib o'tdik.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa.**

Tasviriy san'at ta'limida grafik tasvirlar chizish masalalarining asosiy qismi rassomlarning asarlari bilan ularni tahliliy o'rganilishi shu xulosalarga olib keldiki, avvalo rassom o'qituvchilarning asosiy qismi grafikada rasm chizishni mukammal o'rganishi lozim bo'ladi. Maktabda rasm darslari ham grafikaga asoslanib o'qituvchilarning ishlar bajarishi bilan o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflardan boshlab tasviriy san'atning eng sodda narsalarning rasmini chizishdan boshlashi kerak bo'ladi. O'qituvchi ularning barchasiga oldiniga yassi narsalarni chizib borishi bilan amalga oshiriladi.

Yuqori sinflarga o'tgandan keyingina hajimli narsalarni chizish bilan grafik rasm chizishni davom ettirishadi. Portretlarni chizish beshinchi sinfdan boshlab mavzuli rasmlardan davom ettiradilar. Bunga ham avvalo kerakli materiallar bilan o'quvchilarni yaxshilab tanishtirish va ulardan foydalanishni o'rganishlari kerak.

Tasviriy san'at fanining xususiyatlari ham pedagogikaning osondan qiyinga borish tamoyiliga asoslanib o'qitiladi. Bu orqali bolalarda grafik rasm chizishning o'ziga xos tomonlarini ham bilib boradilar. Agar o'quvchilar qiziqishini sundirmay ishlarni bosqichli olib borilsa ishlar to'g'ri amalga oshiriladi. Mana shu xususiyatlar tasviriy san'at darslarining grafik rasm chizish va qalamda uni bajarish qonun-qoidalariga mos keladi.

## **II. Grafikada rasm ishlash va uni o'qitish metodikasi**

### **2.1. Grafikada rasm ishlashning bosqichlar asosida chizish usullari.**

Tirik bosh yesa doim harakatda bo'ladi: naturachi qimirlab kesa, soya va yarim soyalar xarakteri o'zgaradi. Undan tashqari tirik bosh tasviri bilan ganch boshni tasvirlashni taqqoslashdagi asosiy murakkablik shundan iboratki, bu o'rinda rasm chizuvchi ko'p narsani o'zi mustaqil hal qilishga o'z idroki va ijodiv obiliyatini faollashtirishga majbur bo'ladi. Gips namunalarda rassom shaklni umumiy ko'radi. Ushbu haykal namunasini va yaratgan buyuk usta ikir-chikir, mayda-chuydalarni chetga chiqarib tashlab, ye'tiborini asosiy narsaga qaratadi. Tirik bosh rasmini chizuvchi yendi bularni o'zi amalga oshirishi, asosiy narsani ikkinchi darajalisidan ajrata bilishi kerak bo'ladi.

Tirik bosh shaklini tasvirlayotib unga tus berishda ham murakkablik tug'iladi. Ganch bosh materialining tus va fakturasi ham bir xil bo'lgan. Yorqin va bo'g'iq joylardagi tus kuchi o'rtasidagi farq shaklning u yoki bu yuzasi qanday yoritilganligiga bog'liqdir. Tirik naturadan chizishda shaklga tus berish yana shu bilan murakkablashadiki, naturada turgan kishining yuzi, sochlari, ko'zlari, yonoq va lablari har xil tilda bo'ladi. Yonoq, lablarning qizg'ish tus bir xil yoritilsa-da, sal bo'g'iqroq tuyuladi. Tirik bosh yuzasining turli rangda bo'lishi shaklning o'zini ko'rishni qiyinlashti-radi, rasm chizuvchini shaklni tasvirlash o'niga, yorqin va bo'g'iq rang dog'larini ko'rish va undan nusxa ko'chirish, ba'zan yesa naturada yo'q narsalarni ham o'ylab topishga majbur qiladi.

Rassom bosh shakli qurilishi qonunyatlarini bilmasa, massa, naturadan passiv nusxa ko'chiruvchi bo'lib qoladi, natura uning butun ye'tiborini jalb qiladi, u naturadan nazarini olib qochishga qo'rqadi va bu natura qurulishining qonuniyatlarini idrok yetolmaydi, binobarin, ulardan o'z ijodiy ishida foydalana olmaydi ham. Haqiqiy ijod yerkinligiga yerishish uchun rassom ilmiy bilim bilan qurollanishi zarur. U bu bilan yordamida boshning har bir chuqurchasi va bo'tib chiqqan joylari nimaga asoslanganligi bilishi lozim .

Rassom tirik bosh shaklini chizishda quyidagi uchta vazifani bir yo'la hal qilishi kerak:

1. hajmli bosh shaklining ishonchli chiqishiga yerishish;
2. rasmda kalla suyagi va mushaklar mutanosibligiga yerishish;
3. inson portretitining individual xususiyatlarini ochish.

Bu vazifalarini muvafaqiyatli hal qilish uchun rassom shakl qurilishining individual xususiyatlarini, u yoki bu detalning joylashishini chuqur sezishi, oldindan yesa bu qonuniyatlarni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun tirik bosh rasmini chizishga kirishishdan oldin kalla suyagi va uning mushak bilan qoplanishi xususiyatlarini asoslovchi anotomiya va boshqa fanlar qonuniyatlarini o'rganish kerak. Odam boshining anatomik qurilishini tahlil qilish bilan birga, tasvirda inson boshi va mushaklarning joylanish qonuniyatlariga rioya qilish talab yetiladi. Rasm chizish usuli induvidal tarzda bo'lishi mumkin, lekin mushaklar, suyaklar, paylarning joylashish qonuniyatlarini to'g'ri, bir xilda ochish kerak. Bular tasviriy san'atning ilmiy qoidalaridir. Tus berish, nisbatlar, shaklning konstruktiv asoslari haqida ham shularni aytish mumkin.

Tabiiyki, talaba dastavval, odam boshi shakli qurilishi sxemasini tushunishi va yeslab qolishi, ularni amaliyotda qo'llashi kerak. Taklif qilinadigan sxemalar va shaklni tahlil qilish prinsiplari bo'yicha bosh tasvirini chizish, hatto, o'quv paytida ham ijodiy jarayon hisoblanadi. S' Huning uchun ham u keyinchalik yosh rassomga o'z shaxsiy ish usullarini topish imkonini beradi. Biroq har qanday holda ham, dastlab, bosh shaklining konsruktiv-anatomik tuzilishini, ya'ni odam boshi anatomiasini o'rganish kerak. Talaba plastik anatomiyani o'rganar yekan, shaklning tashqi tomonini kuzatish bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, fikr yuritayotgan anatom olim kabi shakl ichiga kirib borishi, inson tanasi qurilishining qonuniyatlarini tushunib yetishga harakat qilishi lozim. U o'z kuzatishlaridan xulosa va umumlashmalar chiqarib, ba'zi mushak shakllarining qoidalari va me'yorlarini bilib boradi. Insonni bunday chuqur ilmiy o'rganishda Leonarda da Vinchi, Mikelanjelo, Losenko, Shabuyev va boshqalarning rasmlarini misol tariqasida ko'satish mumkin. Leonardo da Vinchi rasmlarida biz nafaqat tashqi mushaklarini, balki chuqur paylar, kemirchak (tog'ay)larni ham ko'ramiz. Kalla

suyaklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining harakatiga, jag' suyak usimtasiga, pastki jag' va yensa (gardan)larga alahida ye'tibor berish kerak. Shuningdek, katta yensa, uning chuqurchasi va yellisoid shaklidagi ikkita burtib chiqqan qismiga (ular yordamida gardan suyagi atlant, bo'yin suyagining yuqori umurtqasi bilan tutashadi) ye'tibor qaratish kerak. Bu suyaklarning hammasi atrofligicha o'ganilishi kerak. Rassom uchun yeng asosiysi - u ularni qalam va qog'oz tutgan holda o'ganadi.

Rassom partret ishlashda yaxshi natijaga yerishish uchun suyaklar shaklining xarakterini qurilish xususyatlariga va umuman, bosh shaklining xarakteristikasiga bog'liq. Shuning uchun natura kalla suyagining umumiy shaklini yeslab qolishga harakat qiling. Chunki ular tirik boshni tasvirlayotganingizda zarur bo'ladi. Jag' suyagi va jag' suyagi o'simtasini shaklining xarakterini yeslab qolar yekansiz, tirik bosh rasmini chizishda yonoqlar shaklining to'g'ri modillanish quloq suprasini tasvirlashda sizga yordam berishini nazardan qochirmang. Jag' suyagi o'simtasining kattaligi taxminan to'rt yonli bo'ladi, jag' suyagi o'simtasining uchi doimo quloq suprasi va bukri o'rtasiga joylashgan bo'ladi. Buni har kim o'z aksiga qarab tekshirib ko'rishi mumkin. Jag' suyagi o'simtasini ushlab ko'rib, quloq suprasi o'tasiga kirib borishini, o'simtani paypaslayotgan barmoq yesa bukri taqalayotganini sezish mumkin. Bu narsani bilmagan talaba, odatda, quloqni yo yonoqqa, yo yensaga joylashtirib qo'yadi.

Yensa (gardan) suyagining so'rg'ichsimon o'simtasini yaxshi ko'rinadi. U yelka suyagi bilan ko'krak - o'mrov mushaklarini birlashtiradi. So'rg'ichsimon o'simtaning joylashishi mushaklar shaklining xarakteriga, umuman, bo'yin xarakteriga bog'liqdir. Asosi taqasimon shakilga yega bo'lgan pastki jag' o'z shoxchalari bilan yonoq o'simtasiga kirib boradi va yonoqlar ustida o'ziga xos chuqurcha hosil qiladi.

Kalla suyagi qutisining chakka oldi yuzalari ham ichkariga, yonoq suyagi o'simtasini ichiga tortilgan bo'ladi. Buni tirik bosh rasmini tasvirlashda hisobga olish kerak.

Peshona suyagi uchtakatta yuzadan tashkil topadi: peshona bukrilari bilan peshona o'rtasi va peshona bukrilaridan chakka suyaklarga tortilgan ikkita yon. Vertikaliga ko'ra peshona suyagi ikkita qismga ajraydi: yuqori qismi peshona bukrilari, pastkisi qosh usti chiziqlari.

Kalla suyagi umumiy qonuniyatlarini o'rganishda uning yoshga ko'ra o'zgarishini ham hisobga olish zarur. Kalla suyagining yoshga ko'ra o'garishlarini beshta davrga ajratish mumkin: birinchi - tug'ilishdan yetti yoshgacha; ikkinchisi - yetti yoshdan jinsiy yetuklik yoshigacha; uchunchisi - o' n olti yoshdan 30yoshgacha; to'rtinchisi 30 yoshdan 60 yoshgacha va beshinchisi - 60 yoshdan katta yoshgacha . Go'daklarda kalla qutisining miya qismi old qismiga qaraganda ancha katta bo'ladi. Ikkinchi davrda suyaklarning o'sish jarayoni sekinlashadi va old gardan suyaklarining o'lchamlari o'rtasidagi farq uncha bo'lmaydi. Uchinchi davrda peshona suyagi tez rivojlanadi, kalla suyagining miya qismi kengayadi va yuqoriga qarab o'sadi, old qismi uzunlashadi, yanoq suyagi yoylari keskin yozila boshlaydi. Kalla suyagi uzil kesil ya'ni katta kishilarga xos ravishda shakllanadi.

To'rtinchi davrda suyaklar o'sishdan to'xtaydi va hych qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Beshinchi davrda old qismi o'zgara boshlaydi. Buning natijasida pastki jag' ko'tariladi, daxon keskin old tomonga turtib chiqadi, yuz qisqaradi; kalla suyagining choklari qotadi.

Odamning tirik boshini tasvirlashda rassom boshining yelka kengligi bilan tutashtirish qonuniyatlarini ham bilishi kerak. Kalla suyagi qutisi yelka kengligi bilan yetita bo'yin umirtqalari yordamida tutashadi. Bu umirtqalar birining ustiga biri joylashgan bo'ladi, lekin ular orasida bukiluvchan tog'aylar bo'ladi. Tog'aylar ularni birlashtirib turadi va harakatlanishiga imkor tug'diradi. Birinchi umurtqa yuqorida bo'lib, unda kalla o'rnashadi. Bu umurtqa "atlant" deb nomlanadi (osmonu falakni ko'tarib turgan afsonaviy devqomat Atlant nomidan olingan) . Atlant bosh orqaga va oldinga yegilgandagina harakatga keladi.

Bosh mushaklari, asossan, kalla suyagining old qismida joylashadi, ular

kalla suyaglarini qoplab turadi va yuz shakli, umuman butun bosh harakatini belgilaydi. Peshona mushagining pastki uchlarini osti terisiga yopishgan bo'lib, u qisqarishda qoshlarni ko'taradi. Peshona mushaklarining tolalari qanchalik ko'p qisqarsa, qoshlar shunchalik ko'tariladi, shu bilan birga peshonada chuqurroq relifli ajinlar paydo bo'ladi. Qoshlar ko'tarilganda qovoq ham ko'tatiladi va ko'z kattaroq ochiladi.

Har bir mushakning plastic xususiyatlarini yeslab qolish muhim. Shuning uchun ham rassomlar butun anatomiyani yemas, balki aynan plastik anatomiyani o'rganadilar. Rassom uchun nafaqat mushaklarning umumiy ko'rinishi balki ularning suyaklarga boshlang'ich va oxirgi yopishishlarini, yeng asosiysi yesa – mushak tolalarining yo'nalishini ham bilishi juda muhim. Chunki shaklga tus berishda rassom qalami ana shu mushaklar yo'nalishi bo'yicha harakatlanishi lozim, bu yesa rassomga ishonchli realistik obraz yaratishda yordam beradi.

Tirik odam boshini tasvirlashda boshqichlar asosida ishlashni mukammal o'rganib olish muhimdir.

- 1) tasvirni kompozision joylashishi bosh shaklning umumiy xarakterini, shuningdek, qismlar va umumiy shaklning proporsional nisbatlarini belgilab olish;
- 2) bosh shakli anatomik tuzilishining o'ziga hos xususiyatlarini ochib borgan holda chiziqli - konstruktiv tasvirlash;
- 3) Tus munosabatlarini hal yetish orqali shaklni detalli chizib chiqish;
- 4) Material xususiyatlarini ochib berish va ishga yakun yasash – umumiyashtirish.

Birinchii bosqich - qog'oz yuzasida tasvirni kompozisiyaviy joylashtirish, bosh shaklning umumiy xakteri va proporsiyalarini belgilash.

Talabalar, odatda, naturaning ifodali turishining o'zidanonoq ilxomlanib ketadilar va darhol kompozision vazifa hal yetildi, yendi uni faqat mexanik tarzda, ko'zga qanday ko'rinayotgan bo'lsa - shundayligicha qog'ozga tushirish qoldi, deb hisoblaydilar. Lekin natura obrazli, juda yoqin va ifodali bo'lishi bilan birga, tasvirda uning ko'rinishi yetarli darajada ishonchli

chiqmay qolish mumkin. Shuning uchun ham rassom uchun asosiy massa, bosh siluyete, yuz tuzilishi, soch va ko'zlar go'zalligini ko'rish va his qila bilish juda muhimdir. Konpozision chizgilar chizishda talaba, avvalo, yeng ifodali ko'rinishni tanlab olish kerak. Qulay nuqta tanlab olingandan keyin rasim chizishga kirishiladi.

Avvalo, qalamni qog'oz ustida yengilgina, bosmasdan xarakatlantirib, modelning kompozision tuzilishini hal qila borib, boshning umumiy shaklini belgilab olamiz. Kompozision yechim ustida ishlayotib, bir yo'la bosh sxematek tazda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Tasvir qog'oz ustida joylashtirish bo'lingandan so'ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishini (holatini), uning bo'yin va yelka kengligi bilan birikishini aniqlab olamiz. Tirik bosh rasmini chizishda profil chizig'ini dadillik bilan uchta teng qismga ajratiladi. Bu sizga nafaqat tasvirni to'g'ri qurish, balki portret o'xshashligiga yerishishga ham yordam beradi. Masalan, profil chizig'ini uch teng qismga ajratib, sochi to'kilayotgan kishida sochlar qoplamasi qoplama chizig'idan ancha balandda joylashishini, quyuq, osilgan qoshlar qosh usti yo'ylaridan pastroqda bo'lishini belgilaymiz.

Ushbu bosqichda yeng asosiysi – boshning umumiy ko'rinishi va uning xarakterini to'g'ri belgilab olishdir. Detallar (burun, ko'zlar, og'iz) faqat belgilab qo'yilad: ularga tus berishga shoshish kerak yemas, bularni keyinroq, hamma narsalarni o'z joyida belgilab bo'lgandan keyin qilsa ham bo'laveradi. Shuning uchun talaba ye'tiborini dastlab bosh shaklining umumiy xarakterini belgilab olishga, so'ng detallarning joylashish o'rinlarini aniqlab olishga qaratish lozim. Tasvirga o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lishi uchun qog'oz ustida qalamni yengilgina yurgizib chizamiz va chiziqli - konstruktiv rasmga o'tamiz.

Ikkinchi bosqich perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini shiziqli-konstruktiv tasvirlash.

Umuman, bosh va uning bo'laklarini chiziqli-konstruktiv tasvirlashga o'tayotganda hajm qanday tashkil topishini ko'rsatishga harakat qilinadi.

Xar bir yuza har xil yoritilgan. Biz shu yuzalarni yengil chiziqlar bilan

ifodalab, butun bosh shakli, uning bo'laklarini ham to'g'ri va ishonchli tasvirlashimiz mumkin.

Bosh shaklini chizishda shaklning konstruktiv asosini ochib borib, bir yo'la kalla suyaklari bilan asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish lozim.

Ko'z, quloq, butun, lablar shakliga aniqlik kiritib borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turishi lozim. Har bir bo'lak bir-biri bilan uyg'unlashgan chog'ida maqsadga yerishiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik, qosh usti chiziqlari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashtiruvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatiladi.

Oxshashliklarni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashish xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur .

Quloq suprasining joylashishini to'g'ri chizish uchun quloq suprasini ustki jag' suyagi shoxchasiga parallel holatda tasvirlash kerak.

Shakl xakteri va quloq suprasining joylashuviga alohida yetibor bering. Har bir kishining quloqlari o'ziga hos tuzilishga yega. Quloq shakli qurilishining qonuniyatlarini bilgan rassom har bir detal xususiyatini osongina ilg'ab oladi. Odam qulog'i beshta asosiy qisimdan iborat. Quloq suprasini tasvirlashda qiyofachini quloq suprasini o'ziga xos tomonlarini kuzatish mumkin.

Odam qiyofasini tasvirlashda lablarning ham tasvirlashni o'ziga xos xususiyatlari bor. Ba'zi odamlarning lablari cho'chaygan, boshqalarniki ingichka, osilgan; ba'zilar ustki lab pastki labga nisbatan ko'tarilgan, ko'pincha qalinroq bo'ladi; Bir kishining labi uzun bo'lsa boshqasini katta bo'ladi va hokazo. Shuningdek, bazi kishilarning dahani keng, katta bo'lsa, boshqalarniki juda kichik va uchli bo'ladi; ba'zan u orqaga, tomoqqa tortilgan yoki, aksincha, tomoqdan ancha turtib chiqqan bo'lishi mumkin va ular ba'zan uzun, ba'zan yesa kalta bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ular ko'ndalang chiziqlar bilan belgilanadi.

Bunday kuzatish rasm chizuvchiga rasimda modelning individual xususiyatlari va portret o'xshashligini ochib berish imkonini beradi.

Yonoq va chaynash mushaklari yaxshi rivajlangan, yonoqlari yesa kuchli bo'rtgan. Ularni tasvirlash orali obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz. Keng

peshona mushaklari terining ko'dalang burushlari bilan chuqurchalar hosil qilgan. Ularni tasvirlashda yehtiyot bo'lish kerak, chunki bo'rtmalar yonoqlardagi teri burshuqlari bilan "tortishib"qolishi mumkin.

Uchinchi bosqich tus berib shaklni detallashtirish. Shaklni detallashtirishdan oldin ish bosqichlarining to'g'ri hal yetilganligi yana bir bor tekshirib chiqiladi. Shaklning umumiy ko'nishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-asta tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalar belgilab chiqiladi. Bu yesa bosh shaklini yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiy shakldan kelib chiqqan holda, bo'laklariga o'tish mumkin. Alohida bo'laklarga aniqlik kiritib borib, shakl tuzilishi qonuniyatlariga ye'tibor beriladi.

Ko'z bir tomonga qaragan muguz qabarig'i yuqori qovoqlarni ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa o'sha yoqqa buradi. Shuning uchun yuqori qovoqlarni chizayotganingizda uning tashqi va ichki tomonlariga ye'tibor bering. Qoshlar xilma xil: keng, tor, qalamqosh, baroqqosh, tekes, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi mumkin. Portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning to'g'ri yoritilishiga bog'liq. Ushbu vazifada naturachining qoshlari quyuk, ko'zlari ustida osilib turibdi.

Tirik odamning boshini tasvirlash jarayonida shaklni detalli ishlash, detallarni umumlashtira olish rasmning badiiy ifodali chiqishiga yordam beradi. Detalli ishlash rasmning ifodali chiqishini ta'minlaydi. Ishning ushbu boshqichida bosh shakli va uning detallariga aniqlik kiritib borib, bir yo'la tus berishga ham asos tayyorlash kerak.

Akademik rasmda nafaqat shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodalilik tus berish vazifasi qanchalik to'g'ri hal yetilganligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

"Tus" deyilganda bir yorug'lik manbaidan predmet yuzasiga tushgan yorug'likning miqdori va sifatini hamda predmet rangini tushunamiz. Predmetning alohida yuzalari yoritilishining o'zgarishi ularning yorug'lik manbaiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog'liq. Tus yorug'lik xarakteri (tabiiy – quyosh, oy nuri;

sun'iy yelektr lampochkasi, sham) va yorug'lik tushayotgan predmet rangi bilan o'lchanadi.

Juda ko'p hollarda naturani uzoq vaqt davomida tasvirlash natijasida talabada his yetish (qabul qilish) jo'shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko'chirishga va chizayotgan rasmni "bo'yab tashlалashga" o'tadi. Ushbu kamchilikning oldini olish uchun P.Chistyakovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tamiz; "Detal ustida uzoq ishlash kerak yemas, chunki qabul qilish (his yetish) jo'shqinligi yo'qola boshlaydi. Undan ko'ra boshqa, yon- atrofdagi qismni chizishga o'tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko'rish oson bo'ladi".

To'rtinchi bocqich materiallikni hal yetish va ishga yakun yasash – umumlashtirish.

Ishning bu bosqishi yeng qiyin va davomlidir. Bunda talaba vazifani ma'lum tugallikka yetkazishi, o'quv materialini qanday o'zlashtirib olganlini bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlarini ham namoyon yetishi kerak. Talaba model shakliga tus berishda bir yo'la uning materiallik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaligi yanada ortadi. Masalan, agar talaba naturachi ko'zining shakl va xarakterini to'g'ri tasvirlasa- yu, ko'zlarga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko'zlarni tasvirlar yekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko'zlar jozibasi kabi omillarni to'g'ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko'zlar jozibasi deganda shu narsani tushunish kerakki, ko'z soqqasi doimo ko'z yoshlari bilan namlangan bo'ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko'zining ishonchli va ifodali chiqishiga yerisha olmaydi.

Qilingan ishlarga yaqin yasalayotganda reflekslar yorug'lik bilan bir xil tusda bo'lib qolmasligi, qattiq qoraytirib soyalar "darcha,, hosil qilmasligi uzoq plandagi yorig'lik va soya kontrastlari oldinga "chiqib,, qolmasligini tekshirib olish kerak. Bunday xotolarni tezroq ilg'ab olish uchun tasvirga ko'proq uzoqroqdan turib qarash kerak

Tirik bosh rasmi ushlashning metodik ketma-ketligiga yakun yasayotganda

shu narsa yesdan chiqarilmasligi kerakki, ishning har bir bosqichiga yetarli darajada vaqt ajratilishi kerak.

Tasvirlashning metodik ketma-ketligini o'zlashtirib olish boshlovchi rassomga uzluk siz, har bir bosqich aloxida qanday hal yetilishini bilgan holda ishonch bilan ishlash imkoniyatini beradi. Rasm ishlashda amaliy tarjibasi bo'lgan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga yega bo'la boshlaydi. Lekin oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ba'zilar o'ylaganidek, har kim o'z holicha yemas, balki pedagog yordamida, butun tasvirlash jarayonini bosqichma-bosqich o'zlashtirish natijasidagina yega bo'lishi mumkin.

Tirik bosh rasmini chizish mashqlaridan keyin bir qator boshlarni yelka kengligi bilan birga chizib ko'rish kerak. Bu vazifalar boshning yelka kengligi bilan bog'lanish qonuniyatlarini o'lashtirib olishga yordam beradi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi yosh rassomga bu odamga xos bo'lgan yeng harakterli xususiyatlarini ilg'ab olish va badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. O'quv vazifalari portret san'ati yegallashga ko'maklashadi. Odam boshini tasvirlash prinsiplarini yaxshi o'zlashtirib olgandan so'ng yanada murakkabroq vazifaga – ijodiy portret yaratishga o'tish mumkin.

## **2.2 Tasviriy san'atning grafikada ishlangan rassom asarlari va ularning tahlili.**

Grafika ya'ni qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining (rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, xaykaltaroshlik va hokazo) asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, asar oldida kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarni avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Katta san'at asarlarini yaratishda yesa, ushbu bajarilgan chizgilar, rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borlikni idrok yetish, ko'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish-da bo'lajak rassom-pedagoglarga zarurdir.

Qalamtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak

o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. S'Huni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhimdir. Bo'lajak bakalavrlar qalamtasvir bo'yicha to'liq kursni tugatgandan so'ng quyidagilarga yega bo'lmoqliklari lozim: qalamtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni; tasviriy san'at bo'yicha qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda kompozisiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluyet, konstruksiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, mayeriallar xususiyatlari, yorug'-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish to'g'risida tasavvurga yega bo'lish kerak.

Fanning o'qitishdan maqsad va vazifalar. Borliqni haqqoniy tasvirlash talabalarga amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga yega. Realistik rasm chizish san'ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi

Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. O'quv qalamtasviri mashg'ulotlari va ularning talabalarni realistik tasvirlashga o'rgatishdagi ahamiyati. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Talabalarga chiziqli va fazoviy perspektiva to'g'risida tushuncha berish. Buyumlarni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilish, nur, soya, yarim soya, tushuvchi soya, shaxsiy soya, buyumlarni hajmi va ularni to'g'ri tushlash, kompozisiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarga o'rgatish. Tasvirlash vositalari: qog'oz turlari, qalamlar, ko'mir, pastel, sangina, sous va boshqalarni ishga tayyorlash.

Odam, hayvon va qushlarning anatomik tuzulish xususiyatlari hamda ularni qalamchizgilar vositasida tasvirlash usullari. Odam bosh suyagining tuzilishi haqida dastlabki ma'lumotlar. Bosh suyagini metodik bosqichlarida to'g'ri tasvirlash. Talabalarga qalamchizgilar chizdirishni o'rgatish orqali tabiatdagi barcha shakl va buyumlarni realistik tasvirlashga o'rgatish. Qalamchizgilar bajarishda turli yumshoq tasvirlash vositalaridan foydalanish malakalarini oshirish. Odam qo'lining gipsdan yasalgan namunasini qo'l skeleti bilan solishtirgan xolda tasvirlash. Modelning

plastik va anatomik xususiyatlarini o'rganish. Mushaklarning o'zaro bog'lanishi. Nisbatlarni to'g'ri belgilash. Qiyofachi qo'lini bilak va tirsaklari birligida tasvirlash. Qo'l va yelka kamari mushaklari. Bilak mushaklari, tirsak mushaklari hamda ularning tuzilishi. Orqa va old bilak mushaklari, ularning funksiyalari. Kaftni bilak bilan tortib turuvchi mushak. Odam qo'lining jismoniy harakatida mushaklarning ko'rinishini tasvirlash Odam tanasining anatomik tuzilish qonuniyatlari: suyaklarning shakli va ko'rinishlari. Inson tanasining plastik anatomiyasi. Bosh suyagi bo'laklari, Umurtqa pog'onasi suyaklari, ularning ko'rinishlari, yelka kamari suyaklari, yerkin qo'l suyaklari va uning plastikasi, yerkin oyoq suyaklari va ularning plastik tomonlari, ko'krak qafasi tuzilishi uning tasviriy san'atda tutgan o'rnini. Odam muskullar tizimi, uning shakllari, plastik xususiyatlari, rasmda muskullarni tasvirlash. Yalang'och naturani tasvirlashda plastik anatomiyaning ahamiyati.

Odam gavdasining plastik anatomiyasi hamda uning nisbatlari. Odam anatomiyasi tuzilishining ilmiy asoslari. Yerkak va ayollarning plastik anatomiya jihatdan o'ziga hoslik tomonlari. Harakatdagi odam gavdasining shakllari dinamik va statik holatlar (yugurish, sakrash, mehnat jarayoni va boshqalar).

Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iynazar qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, asar oldida kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarni avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Katta san'at asarlarini yaratishda yesa, ushbu bajarilgan chizgilar, rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borlikni idrok yetish, ko'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish-da bo'lajak rassom-pedagoglarga zarurdir. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. O'quv qalamtasviri mashg'ulotlari va ularning talabalarni realistik tasvirlashga o'rgatishdagi ahamiyati. Tasvirlashning asosiy qonun qoidalari. Talabalarga chiziqli va fazoviy perspektiva to'g'risida tushuncha berish. Buyumlarni tasvirlashda chiziqli konstruktiv tuzilish, nur, soya, yarim soya, tushuvchi soya, shaxsiy soya, buyumlarni hajmi va ularni to'g'ri tuslash, kompozitsiya asoslari kabi asosiy qonun qoidalarga o'rgatish.

Tasvirlash vositalari: qog'oz turlari, qalamlar, ko'mir, pastel', sangina, sous va boshqalarni ishga tayyorlash.

Odam, hayvon va qushlarning anatomik tuzulish xususiyatlari hamda ularni qalamchizgilar vositasida tasvirlash usullari. Odam bosh suyagining tuzilishi haqida dastlabki ma'lumotlar. Bosh suyagini metodik bosqichlarida to'g'ri tasvirlash. Talabalarga qalamchizgilar chizdirishni o'rgatish orqali tabiatdagi barcha shakl va buyumlarni realistik tasvirlashga o'rgatish. Qalamchizgilar bajarishda turli yumshoq tasvirlash vositalaridan foydalanish malakalarini oshirish.

Odam boshining tuzilishi o'ta murakkab va ko'pqirralidir. Har bir odam boshining kalla suyagi tuzilishi va tashqi ko'rinishi, plastik tasviri o'zining betakror xususiyatlariga ega. S'Hu bilan birga boshning umumiy shakli, uning konstruktiv – anatomik asosi bir xilda bo'lgan tuzilish konuniyatiga asoslanadi. inson boshini tugri tasvirlash uchun rasm chizuvchi uning shakli, kala suyagining kismalari va ular urtasidagi uzaro bogliklikni xamda tasvirlash jarayonida olingan bilimlarni kullay bilishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun u juda ko'plab mashq kilishi zarur. Talabalar ta'lim jarayonida dasturda ko'zda tutilgan quyidagi vazifalarni bajaradilar;

1. Boshning gipsli bo'laklari va gipsli modeli.
2. Tirik bosh, boshning yelka kamari bilan rasmini bajarish.

Bunda ular tasvir tuzilishining ayrim qirralarini qayta-qayta takrorlaydilar. Vaholanki, har bir o'quv topshirig'ida talaba katta bilim va malakalarni o'zlashtirib olishi kerakki, buni birgina vazifani bajarish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi. Boshning umumiy shaklini aniqlash, chiziqli-konstruktiv tuzilma hosil qilish va hokazo tamoyillarni o'zlashtirish uchun maxsus mashqlar kerak. Talabalar odatda bunga rioya qilmaydilar, ular uchun bu mashqning hojati yo'qdek ko'rinadi. Go'yoki ularga maxsus mashqlar yordami kerak yemasdek tuyuladi va mazkur mashqlar bosqichli rasmlar chizish paytida ham amalga oshiraveriladi degan tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Lekin rasm chizish paytida talaba uni o'zlashtirib olomaydi. Natijada ishni o'z holicha davom yettiraveradi va oldinga intilmay, ko'nikmadan foydalanaveradi.

Bosh shakl tuzilishi qonuniyatlari va uni tasvirlash qoidalarini o'rganishda talaba yeng avvalo, tasvirlashning dastlabki bosqichida kechadigan tahlil usuli va boshning umumiy shaklini tasvirlashni o'zlashtirib olishi zarur. Garchi akademik rasm chizishda ishning har bir bosqichi qisqa vaqt davom yesa ham talaba uning mazmunini tushunib maxsus mashqlar yordamida amalda uning har bir bosqichini puxta o'zlashtirib olishi kerak. quyida bosh shakli tuzilishini tahlil qilish va tasvirlash usulining mohiyatini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Har bir buyumni to'la idrok yetishda yorug'lik asos bo'lganidek, bosh shaklini idrok qilishda ham rassomga yorug'lik yordam beradi. Nur bosh usti bo'ylab yoyilib, rassomga uning plastikasini ko'rish imkonini beradi. Dastlab inson bosh shaklini juda tez umumlashgan holda idrok yetadi; kalla go'yo shardek, bo'yin silindrik, burun prizmadek, ko'z sharsimon qobiqdek, ko'rinadi. Faqatgina diqqat bilan qaragandagina rassom boshning ham yaxlit, ham uning qismlari plastik tavsifining nozik tomonlarini ilg'ay boshlaydi.

Psixologik nuqtay nazardan qaraganda, inson dastlab predmetning umumiy shaklini, shundan keyingina uning bo'laklarini idrok yeta boshlaydi. Ilmiy tadqiqot natijalari ko'rib idrok yetish jarayonining beshta asosiy bosqichini (fazasini) ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi;

1. Predmetning fazodagi holati bilan uning umumiy nisbatlarini taxminiy baholash o'rtasidagi farqni ajratish:
2. S'Haklning rakursda turishi:
3. Perspektiv tomonlarining o'zgarishini farqlash:
4. S'Haklni uning detallari farqlanmay berilganda bir xil umumiy tarzda idrok yetish:
5. S'Haklni uning detallari bilan to'liq holda bir xilda aks yetish.

Ko'rish idroki qonuniyatlariga rioya qilgan holda rasm chizuvchi birinchi navbatda, boshning umumiy ko'rinishini tasvirlab, uning shakli-shamoyili xususiyatlarini ko'rsatishi zarur.

Uyg'onish davridayoq rassomlar ushbu zaruriyatni ko'rsatib o'tganlar. Masalan, Al'berti o'zining «Rangtasvir to'g'risida uch kitob» asarida shunday

yozadi. «Biz biror narsaga qarar yekanmiz, u fazoda ma'lum joyni yegallab turganini ko'ramiz. Keyinchalik, ushbu jismga chuqurroq qarab, uning barcha ko'p sonli bo'laklarini uyg'unlashib ketganligini seza boshlaymiz».

Har qanday predmetning shakli (bu o'rinda odam boshi ham) ko'p sonli yuzalardan iborat. Rasm chizuvchining vazifasi bu yuzalar ma'lum shaklni hosil qilgan holda o'zaro qanday uyg'unlashib ketganligini to'g'ri tushunishdan iboratdir. Lekin bu shaklni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun talaba katta, uch o'lchamli jismning real ko'rinishini ilg'ab olishi, ya'ni o'z idrokini fazodagi ko'rinishi bilan qog'oz sirtidagi ko'rinishiga moslay ola bilishi kerak. Bosh shaklini tasvirlashchizuvchidan perspektiva nazariyasi borasidagi bilimlar, tasvir qurish jarayonida yesa ularning qoidalaridan foydalana bilishni talab yetadi.

Ko'p yillik amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, oddiy geometrik jismning perspektiv tasvirini qurish unchalik qiyin ish yemas, lekin odam boshi kabi murakkab shaklning perspektiv tasairini bajarish anchagina murakkab ish. S'Huning uchun ta'limning pedagogik prinsipi – oddiydan murakkablikka, umumiylikdan xususiylikka prinsipidan kelib chiqib uyg'onish davri rassomlari boshni tasvirlashga o'rgatishda yeng oddiy geometrik shakllarni qo'llashdan kelib chiqqanlar, ya'ni ham yaxlit bosh, ham uning har bir qismini geometrik asosda ko'rishga va tasavvur qilishga o'rgatganlar. Rasm chizivchi ana shu prinsipga amal qilib, boshni haykal kabi yo'nib uning umumlashgan shaklini tasavvur qilishi kerak. Bu A.Dyurer rasmida ko'rgazma tarzida berilgan. Odam boshi shaklini tasvirlashni tahlil yetish va qurishning bunday usuli bilan ko'p rassomlar foydalanganlar. Gol'beyn, S'Hon chizgan rasmlari bunga misol bo'la oladi. Amaliyot shuni isbot yetdiki, kesib ishlash usuli tasvir qurishning prespektiv qurilish qoidasini o'zlashtirib olishni ancha yengillashtiradi. Uyg'onish davridan keyin, hatto hozirgi kungacha bu uslubdan rassom pedagoglar foydalanib kelmoqdalar.

Binobarin, yetuk rassom-pedagog D.Kardovskiy rasm chizish prinsiplari va o'qitish uslublari haqida gapirib shunday degan yedi; «Xo'sh, shaklning o'zi nima? – Bu geometrik jismlar jumladan; kub, shar, silindr va hokazolardir. Ular u yoki bu xarakterga yega bo'lgan jismlardir. Tirik naturalarning shakllari albatta to'g'ri

geometrik shakl bo'la olmaydi, lekin aslida ular ham ushbu geometrik shakllarga yaqin turadi».

XYII – XIX asr rassom-pedagoglari ham murakkab shaklni tasvirlashda yeng sodda geometrik shakllardan kelib chiqqanlar (Karrachi, Preysler, Losenko, S'Hyebuyev, Sapojnikov, Dyupyui, CHistyakoya, Ashbe va ko'pchilik boshqalar). Masalan, yugoslav rassom pedagogi Anton Ashbe bosh rasmini chizishga o'rgatish tizimi uchun «shar prinsipi» va tus bilan modellashtirishni asos qilib olgan. Rassom va pedagog D.Kardovskiy tasvirlashning dastlabki bosqichida «kesib» chizish usulidan foydalanishdir, deb hisoblashgan. S'Huni takidlash zarurki, turli maktablarning va yo'nalishlarning deyarli barcha rassomlari bitta xulosaga kelganlar; bosh tuzilishini tasvirlashda umumiy hajm ko'rinishini bo'rttirgan holda katta boshlash, shundan ke yingina bo'laklarga o'tish kerak.

Bosh tuzilishining umumiy shakli nima o'zi? Bu o'z ko'rinishi jihatidan tuxum shaklini yeslatuachi uch o'lchamli hajmli jismdir. Bosh rasmini chizishga o'rgatishda hamma o'qituvchilar talabalar diqqat ye'tiborlarini shakl qurilishining ana shu xususiyatiga qaratganlar. Bu narsani biz Preysler, Losenko, Sapojnikov, Kardovskiy va boshqalarning o'quv qurollarida ham ko'rishimiz mumkin. Rassom-pedagoglar odam boshi rasmini tasvirlashni o'rgatar yekanlar, har doim uning tuxumsimon shaklining tahlilidan boshlaganlar. A.Solovyev, G.Smirnov, Ye.Alekseyeva bosh rasmini chizishni tuxumsimon massa tusini tasvirlashdan boshlashni tavsiya yetganlar. Bu o'rinda boshlovchi rassomga boshning qismlardan yemas, balki umumiylikdan, dastlab uning umumiy shaklini, shundan so'ng yesa asta-sekin bo'laklarini tasvirlashni o'zlashtirib olishni tavsiya yetganlar.

«Kesib ishlash» usuli qog'oz yuzasidan bosh shaklining ham umumiy ham tarkibiy qismlarini to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bu usul talabalarning diqqat ye'tiborini tashqi bo'laklarga (qoshlar, kipriklar va h.k.) yemas, balki katta shaklning asosiy mazmuniga qaratish imkonini beradi. Buni tushunib olish qiyin yemasdek tuyulsada, lekin uni rasmda ko'rsata olish ancha murakkab ishdur. Bu masalani ancha yengillashtirish uchun o'tgan asrdagi fransuz rassomlari aka-uka Dyupyuilar bosh rasmini chizishga o'rgatishga shu usuldan foydalanganlar.

Bosh shaklini tahlil qilar yekanmiz, umumiy ko'rinishda uning kalla suyagi bilan yo'g'rilgan tuzilishning ma'lum qonuniyatlariga yega yekanligini ko'ramiz.

Mashhur haykaltarosh A.Golubkina shunday yozgan yedi: «masalan, yuz tuzilishini qismlarga ajratib tashlang, siz ularning hammasi 14 ta asosiy bo'laklardan iboratligini ko'ramiz: 1-peshona bugrilari Bilan o'rta peshona, peshona bugrilaridan chakka qism suyagigacha 2-ta reja, 2-ta chakkadan dahandan pastki qism jag' chetigacha, 2-tasi ko'z kosachalarigacha, 2-tasi ko'z kosalaridan burun va og'iz burchaklarigacha 2-tasi og'izdan jag' suyagi va chaynash muskuligacha va burundan dahan ostigacha. O'amma insonlarning yuzlari ham har doim anna shu 14 ta rejadan iborat bo'ladi: faqat reja shakllarigina o'zgaradi xolos». A.Golubkina boshning sxematik rasmini tavsiya yetar yekan, umumiy shaklni to'g'ri tasvirlashga yordam beradigan asosiy yuza va chegaralarning taqsimlanishiga ye'tiborni qaratish lozimligi haqida gapiradi.

Professor M.Kurilko bosh shakl tuzilishi sxemasini tahlil qila borib, bunda bosh qismi yuzalarining o'sha 14 ta yuzasiga asoslangan va detallarni bo'laklarga shakl berishda (burun, ko'zlar, lab, dahan) aniqliklar kiritgan hamda bosh va bo'yin shakllari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rgazma tarzida ko'rsatib bergan.

Tasvirda bosh shaklining umumiy xarakterini bo'rttirish va kenglikda alohida yuzalar yo'nalishiga aniqlik kirita borish, to'g'ri shakllashni kuzatish kerak. Rasmda shaklni ko'rsatishdan yeng asosiy maqsad shundan iboratki, unda bosh shaklini yaxlit, yeng xarakterli joylarini alohida bo'rttirib ko'rsatishdir. Katta shaklni ifodalash usuli bo'yicha ishlash rassomni shakl tuzilishi ikir-chikirlaridan voz kechib, faqat hajmning kata bo'laklariga ye'tiborni qaratish, yaxlitlik, umumiylikni ko'ra bilishga intilishga majbur yetadi. YAxlitlikni ko'ra bilishga o'rgatish uchun bu yaxlitlik qanday yelementlardan tashkil topganligi, bu bo'lak va qismlar o'zaro qanday uyg'unlashishini bilish kerak. Bosh shaklini to'g'ri tasvirlash talabadan naturani ko'rib chiqish va tasvirlashda metodik bosqichlarda ishlashni talab yetadi. Tasvirda kata shaklni tahlil qilish va ifodalash usulini yegallash, chizuvchiga tasvir tuzishning natijalarini oldindan ko'ra bilish, ya'ni uning chizayotgan rasmi oxir oqibatda qanday ko'rinish kasb yetishini oldindan tasavvur

yetish tajribasini beradi.

Bunday o'quv mashqlari asosida tahliliy usul yotishi kerak. Rassom bosh shaklini tasvirlar yekan, hajm alohida yuzalardan qanday tashkil topa borishini, shaklning konstruktiv asosi qanday shakllanayotganini ko'ra bilishi kerak. Rassom shaklni go'yo tomosha qilayotgandek, qalam tutgan qo'l xarakati yesa, rasmdagi ana shun ayda-chuydalarsiz umumlashgan shaklni plastik ifodaga bo'ysundirishi kerak.

Bosh shaklining hajmini tasvirlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, boshning ikkita asosiy qismi mavjud. Bular: kalla suyagining sharsimon shakli va taqasimon jag' suyagi shaklidir. Ko'pchilik rasm chizuvchilar soqolli yerkak kishining boshini tasvirlashda bu xususiyatni chetda tushirib qoldiradilar (masalan, Gomer, Zevs, Gerakl va boshqalarni chizishda). Bu o'rinda dahan, ya'ni jag'ning pastki qismi orqa kalla suyagidan uzoqlashib qolgandek, xudi havoda muallaq turgandek, kalla suyagi qobig'idan chiqib qolgandek tuyuladi. Rassom kalla suyagining umumiy tuzilishini hisobga olib jag'ning ostki qismini kalla suyagining asosiy so'ngaklari Bilan to'g'ri tutashtirishi lozim.

Bosh shaklini va uning tarkibiy qismlarini tahlil yetishda davom yetib, kata shaklni bo'rtirib chiqarish Bilan bog'liq yana bir qator qonuniyatlarni ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, burun shakli asosida prizma yotadi. Burun shakli tuzilishining bu qonuniyatini bilgan rassom uchun uni qog'oz yuzasida tasvirlash yendi unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Rasmda burun shaklining perspektiv ko'rinishini berish ancha murakkab ish. Prizmaning perspektiv ko'rinishini qurish hatto yendigina boshlovchi rassomga ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bundan tashqari, shakl va uni yuzada ifodalashning bunday tahlil qilish usulidan foydalanish rassomga shaklni tus jihatdan ham hal yetishga yordam beradi. qog'oz sirtidan to'rt yuza Bilan chegaralangan burun prizmasini belgilab olgan rassom darhol tus alomatlari – nur, soya, yarim soyalarni ajratib oladi va shundan so'ng burunni o'ziga qarab xarakterini aniqlaydi va shaklni mayda, bo'laklarini modellashga kirishadi. Ko'z shakli shar shakli Bilan bir xildir va maxsus adabiyotlarda «ko'z soqqasi» deb yuritilishi bejiz yemas. Lekin bosh rasmini chizishda shuni hisobga olish kerakki,

ko'z soqqasi (o'zbek shevalarida «ko'z kosasi» ham deb yuritiladi) ko'z kosasining uchdan bir qismigina tashqarida ko'rinadi. Bundan tashqari, ko'z soqqasi va ko'z kosasiga o'tishdan qovoqlar mo'tadilasha boshlaydi va shaklga ishlov berish bosiqroq bo'lishi kerak. Ko'pincha talabalar ko'zning sharsimon shaklini ifodalay turib «pingpon koptokchasini» chizib qo'yadilar va bu inson boshining real ko'rinish shakliga putur yetkazadi.

S'Huni alohida ta'kidlash joizki, boshni tasvirlashning dastlabki bosqichida «kesib ishlash» usulidan foydalanganda bo'rttirib yuborish va «kubizm» yaratishga berilib ketish karak yemas. Bunday holatni ba'zi rasm chizuvchilarda kuzatish mumkin. Bosqichli vazifa ishlashda shakl tuzishning yo'nib ishlash bosqichi unchalik ahamiyatli o'rinni yegallamaydi, faqat rassomga yordam beradi xolos.

«Kesib ishlash» usulidan foydalanib tasvirlashda rasm chizuvchida yeng asosiy narsani ko'ra bilish, ko'ringan narsani mantiqan idrok yeti shva mazkur plastik obrazini ochiq tasavvur yetish malakasini orttiradi. Agar rassom bosh shakli xususiyatlarini idrok yeta olmasa va tasavvur qilmasa, faqat o'z tuyg'ulari Bilan cheklanib qolsa, u holda u naturadan passiv tarzda nuxsa ko'chirishga, tashqi qurinishni shundayligicha o'xshatib qo'ya qolishga majbur bo'ladi. Rassom obrazi tasavvur Bilan ishlamas yekan, umumlashtirishga yaqinlasha olmaydi, yoki idrok yetish nuqtai nazaridan qarayodigan bo'lsak, bunday tasavvur borliqdan tushirib olingan surat, go'yoki naturaning umumlashgan obrazidir. Psixolog B.Lomov tasavvur qilish jarayonini tushuntira borib u yoki bu obyektни tasavvur yetish uni ko'p martalab idrok yetish jarayonida shakllanadi deb ta'kidlaydi. «Idrok yetishdan tasavvur qilishga o'tishdan obraz tuzilmasi o'zgaradi. Obyektning bir alomati xudi bo'rttirib ko'rsatiladigandek, kuchaytirilayotgandek, boshqalari yesa qorong'uda, ye'tibordan qolib ketayotgandek va zaiflashayotgandek tuyuladi. Boshqacha aytganda obraz sxematizmi sodir bo'ladi» - deb yozadi. S'Hunday qilib, rasm chizish san'atini yegallashda «Kesib ishlash» usulining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi faqat badiiy amaliyotida yemas, balki psixologiya – pedagogika fanlari ma'lumotlari Bilan ham o'z isbotini topgan.

«Kesib ishlash» usuli rassomga tasvir qurishning uslubiy bosqichlarini

o'rgatibgina qolmay, balki realistik san'at tilini yegallashga ham yordam beradi. Talaba yuzaning kenglikdagi yo'nalishini aniqlaganda va uni rasmda to'g'ri Bera olishga intilganda u obyekt obrazini grafika vositalari Bilan berishga o'rganadi, binobarin rasm tiliga yega bo'ladi.

Lekin rasmda tahlil va ifodalash usulini o'rganish talaba uchun ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. U «Kata shakl» tuzilishining umumiy ko'rinishini tasvirlar yekan, odatda boshning chiziqli tashqi ko'rinishi Bilan cheklanib qolib, na bosh shaklning xarakter iva na uning hajmini o'rganmay turib bir yo'la bo'laklarini tasvirlashga o'tib ketadi. S'Hundan u shakl asosini yuzaga chiqarmay turib, detallarni burun, ko'z, lablar shakli tuzilishlarini ko'chirib chiza boshlaydi.

S'Huning uchun ham yuqorida aytib o'tganimizdek «kesib ishlash» usuli Bilan kata shakl ifodasini berishning uslubini o'zlashtirib olish uchun maxsus mashqlar qilish zarur bo'ladi.

Dastlab bunday mashqlarni gipsdan ishlangan boshni oldingizga qo'yib chizishdan boshlash mumkin. Buning uchun boshning umumlashgan shaklini yaxlit holda tasvirlab, keyin yesa asosiy detallarining kata shakllarini, go'yo burunni yemas, balki prizmani, binobarin hammasini umumlashgan ko'rinishda chizish vazifasini qo'ying. Bunda burun prizmasini ko'zning sharsimon shakllarini belgilab olib qismlar va yaxlitlik o'rtasidagi proporsional munosabatlilikni diqqat bilan kuzatish zarur. 9a,b – rasmda bunday mashqlar misol tariqasida berilgan. Talaba bunday mashqlarni bajara borib kesik bosh shaklini ifodalashga jalb yetilgan maqsad yemas, balki tasvir qurish jarayoni Bilan ijodiy bog'liq bo'lgan boshlang'ich, xizmat bosqichi yekanligini tushunib yesin. S'Huning uchun gips modellardan bajariladigan «kesik»ning soddalashtirilgan ifodasi Bilan birga tirik bosh rasmlarni ham chizishi kerak. Rassom oynaga qarabo'z rasmini chizsa, bu usul yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu o'rinda u diqqatini tortadigan mayda detallarni ko'chirib qo'ya qolishdan bosh tortib, faqat hajmining asosiy massasini chizishga diqqat-ye'tiborini qaratish, bu borada undan katta iroda va qo'yilgan vazifani bajarishga bo'lgan ishonch hissi talab yetiladi. 9a-rasm bunday vazifani bajarish mashqi qo'l keladi. Bunda biz talabaning ikkinchi darajali alomatlar (soch turmagi,

teri ajinlari va hokazolar)ga ahamiyat bermay boshining asosiy «katta» shaklini va uning tarkibiy qismlari – burunning prizmatik shakli, ko'zlarining sharsimon shaklini va lablar hamda dahanining umumlashgan shakllarini bajarishini ko'ramiz. Yo'nib ishlash usuli odatga aylanib qolmasligi, balki tasvir tuzishning qisqa bosqichi sifatida qaralishi uchun bir yo'la yanada real ifodali rasm ishlash ham zarur. Tasvir tuzishning umumiy jarayonini o'zlashtirish uchun gips boshdan davomli rasm chizish kerak. Bu topshiriqlar mashq kabi qaralganligi uchun bunday rasmni chizishga ko'pi bilan 2 soat vaqt sarflanadi.

Katta shaklni ko'ra bilish va uni tasvirlash ishda muvaffaqiyat qozonishga ko'mak bo'ladi. Rasm chizishning buyuk ustalari katta shaklni ajib tarzda yegallaganlar. Masalan, V.Saviskiyda bu narsani yaxshi kuzatish mumkin. Bu yerda biz ko'z olmasi sharsimon shaklini, burunning prizmatik shaklini, boshning tuxumsimon shaklini aniq ko'ramiz.

Go'yo bu narsalarni bunchalik maydalab tushuntirish talab qilinishi zarur yemasdek bo'lsa ham talabalar ta'limining dastlabki bosqichlaridayoq umumiylikka degan prinsipni yaxshi o'zlashtirib oladilar. Lekin amalda bu prinsipni har turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. P.CHistyakov o'z o'quvchilarini (shogirdlari) «sinov rasm chizish» tizimi yo'li bilan, A.Solovyev tus munosabatlari yo'li bilan ta'lim bergan, A.Deyneka chiziqli – konstruktiv rasmdan qochgan. S'Yu bilan birga rasmga turlicha ijodiy yondoshish bo'lishiga qaramay, natura tahlilining prinsiplari va bosh tuzulish shaklini realistik ifodalash bilan qurish qonuniyatlari hamma uchun yagonaligicha qoladi. CHizuvchi bularning hammasini yaxshi tushunib olishi uchun unga doimiy va batafsil tushuntirishlar zarur.

Maktab yoshlariga, umuman barcha san'atning ilmiy asosini bildirmogi, ularni xozirgi zamon mehnat madaniyati bilan tanishtirmogi uchun tasviriy san'at fanini chukurroq urgatib bermogimiz lozim. Tasviriy san'at predmeti ukuvchilarga rasm chizish yullarini, tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati asarlarini taxlil etish usullarni xamda boshka ukuv predmitlarni uzlashtirishda, ishda va turmushda tasviriy san'atdan foydalanishni urganadi.

Tasviriy san'at darslarining xar bir soati rassom asarlariga birontasini

kursatmasdan, urganmasdan utkazilmaydi. Chunki bu fanning ukitilishida tasviriy san'at asarlari muxim ahamiyatga ega bulib xisoblanadi.

Respublikamiz maktablarida bolalarni tasviriy san'at fanlariga bulgan kizikishi yukori ekanligi sir emas. Lekin xar bir kasbning uzida xam xayotga bulgan munosabatlar uzgachadir. Ukuvchilar uzlarining kizikishi tufayli tanlagan predmetidan vakt utishi bilan sovub boradi. Bu nima uchun shunday ekani xech kimni kiziktirmaydi. Juda yaxshi bilamiz fanlarni bir biriga boglab olib borish zarur ekanligini. Shuning bilan birga xar kanday fan asoslarini chukur urgatish lozimligini. Xush bugungi axvol kanday? Respublikamiz me'yoriy-xujjat va konunlarida, 2004-2009 yillarga muljallangan maktab ta'limini rivojlantirishni umum milliy dasturida xam ukuvchilarni estetik shakilangan, komil inson kilib tarbiyalash masalasi kuyilgan. Rassomlar ijodini urganish shu kabi madaniyatni, san'atni anglashni urgatishda katta ahamiyatga ega. Maktab tasviriy san'at dasturida Uzbekiston xalk rassomlari U.Tansikboyev, A.Abdullayev, Chingiz Axmadovlar, Rashid Temirov, Ruzi Choriyev, N.Karaxon, Raxim Axmedov, Abdumumin Boymatov, Ilxom Jabbarov, Turkman Esanov, Tulagan Yarkulov kabilarning asarlari reproduksiyasidan foydalanish masalalarida keltirib utiladi. San'atshunoslik asoslarida rassomlarning ijodiy faoliyatiga aloxida ahamiyat berilgan. Lekin, materiallar yetarli tarzda bulmaganligi uchun rassom biografiyasini boglab olib borish, asarlarining reprodaksiyalari yetarli emasligi tufayli ular olib borilmay kolib ketmokda. Dasturlarimizda rassomlardan Urol Tansikboyev, Abdulxak Abdullayev, Chingiz Axmarovlarning ijodiy faoliyati urganish talablari kuyilgan.

2.Tasviriy san'at dasturida berilgan mavzulardan asosiy kismida rassom asarlari taxlili buladi.1-sinfda "Buyoklar va ranglar", "Kuz keldi", "Oltin kuz", "Toychoq xaykalini ishlash", "Akvariumdagi baliklar rasmini ishlash", "Ikki echki", "Kumush kish", "Kayikcha tasvirini ishlash", "Buri bilan Tulki", "Fil polvon", "Samalyot", "Ulkamizda baxor", "Navruz", "Gullar xar xil buladi", "Rang-barang kapalaklar", "Xayvonlar tasvirini yasash" kabi mavzular berilgan.

2-sinfda esa "Amaliy bezak san'ati", "Juja va urdakcha" xaykalini yasash ,

“Echki bolalari va buri” ertagi asosida rasm ishlash, “Maktanchok kuyon”, “Kuchkor”ning xaykalini ishlash, “Bizning kucha”, “Baxorgi gullar”, “Yelkanli kayiklar”, “Saxrodagi tuyalar karvoni” mavzularida rasm chizish beriladi.

3-sinfda “Tabiat mujiza yaratadi”, “Xutik yetaklagan bola”, “Anorlar”, “Kuzgi gullar”, “Kish uyinlari”, “Saxroda”, “Varrak uchirish”, “Sopol lagan uchun naksh ishlash”, “Kafasdagi kush” mavzularida rasm ishlash beriladi.

4-sinf “Kovun” va “Anor”ning uziga karab rasmini ishlash “Rakkosalar xaykalini yasash”, “Kushlar uchib keldi”, “Uzbekistonning me’morchilik yodgorliklari”, suxbat “Akrobotlar”, “Baxor keldi”, “Sport uyinlari”, “Vertalyot yordamida keldi”, “Savat kutargan kiz”, “Susambil”ertagiga mavzuli rasm ishlash, “Navruz”, “Togda baxor”, “Poyga”, “Men sevgan kasb” mavzularida rasm ishlash, “Tulki bilan turna” mavzusida importrasiya ishlash dastur-rejada beriladi.

Bu boshlangich sinf ukuvchilarini rasm chizish asoslari bilan tanishtirish va rassomlarning chizgan asarlarida siz kabi eksmentlarga e’tiborni karatish lozimligi kursatiladi. Bunda natyurmortchi rassomlar N.Konishevich, N.Kashina, Z.Kavaleviskaya, M.Mashkov, Xeda, Surbarin, Xrutskiy Yu.Yelizarov, L.Salimjonova kabi rassomlarning asarlaridan foydalaniladi. Mavzuli rasm chizish darslarida U.Tansikboyev, R.Axmedov, K.Ominov, M.Nabiyev, B.Jolov, J.Umarbekov, B.Boboyev, N.Sultonov, O.Kozokov, G.Abduraxmonov, I.Ivanov, I.Vasilov, I.Levitan, N.Karaxon, Ayvazavekiy, V.Vasnisov, Fezotov, Surikov, I.Repin va boshkalarining mavzu asosidagi asarlaridan foydalanish mumkin.

Xaykaltaroshlikda esa Mekelanjilo, Miron, Shubin, Konenkov, A.Boymatov, D.Ruziboyev, Greshchenko, I.Jabborov, T.Esonov, T.Yorkulov, R.Aymetov kabilar bajargan xaykallardan foydalanish mumkin.

Amaliyot san’atda X.Raximova, T.Tuxtaxujayev, Maxmudov, R.Boltayev, U.Jurakulov, M.Usmanov, K.Kosimov naksh kompozisiyalashni kullash yaxshi natijalar beradi. Albatta xar bir dars fakat suxbatga aylanib ketmasligi lozim. Bunda mavzusiga oid bulgan suratlarni topish va tuplash ukuvchining uziga beriladi. U xakida rasm chizish darslari jarayonida kisman ma’lumotlar berib boriladi.

Xuddu shuningdek,yukori sinf programmasida xam berilgan mavzular ana

shu rassomlarning asarlari mazmunidan foydalanish imkonini beradi.

5-6-7 sinflarga reja-dasturida keltirilganlarining ayrimlari quyidagichidir: “Tasviriy san’atning ijodiy tili” suxbat “Grafika” xakida suxbat, “Rang tasvir”, “Manzara janri”, “Animalistik janr”, “Portret janri”, “Natyurmort va xakozo shu janrlarda rasm ishlash” berilgan, “Urta asr san’ati”, “Xaykaltaroshlik”, “Shakl menatura san’ati”, “Dastgoh va monumentar rang tasvir”, “Uzbekistonning rang tasvir ustalari”, “Tasviriy san’atning okim va izlanishlari”, “Uz-n davlat gerbi”, “Dizayn san’ati”, “Uzbekistonning me’moriy yodgorliklari”, “Kitobot san’ati” va boshkalar. Bularning xar birini utish jarayonida R.Axmedov, Yu.Yemzarov, K.Emenov, G.Abduraxmonov, U.Tansikboyev, I.Ikramov, Ch.Axmarov, N.Kuziboyev, M.Saidov, M.Nabiyev kabi akademik rassomlarning asarlaridan urganiladi, xaykaltaroshlardan va meymorlardan yana A.Turdiyev, N.Bambeladze, Akopojanyan, I.Jabborov, R.Aymetov, A.Mamyajonov, T.Boltaboyev, T.Sadullayev, Sh.Xasanova, G.Gambarova, E.Muxammadiyev kabilar asarlaridan olib reproduksiyalari taxlil etiladi. Shunda ukuvchilar dars davomida uzining uzlashtirishini, san’at sirlarini tezkor egallab rassomlik xunariga kizikishi ortadi. Bolani kupincha yaxshi rasm chizishni urganishi darida, yoshligida juda kizikkan bu soxasini ota-ona, ba’zida esa boshka san’atni tushunmaydigan ukituvchi kizikishini yukotadi. Chunki, oddiy chizilgan rasmni xam ragbatlantirish lozimligini goxida unutup kuyiladi. Jaxon san’ati va madaniyati shu rasmlarni tushunish, undan zavk olish, xayotida foydalanish kerakligi xammaga xam tushunarli emas.

Xozir kuplab yoshlar nakkosh, ganchkor ustalar kuliga shogirt tushmokda maktabda sungan kizikishi ustoz kulida tezda yana tiklanadi. Agar shu tomonlar maktab partasida kullab kuvatlaganda yanada kuchli usta rassomlar yetishib chikar edi. Tasviriy san’at fanining axamiyati rassomlar ijodini chukur urgana boshlagan ukuvchida xayotida katta buladi. Ukituvchi xam rassom assarlarini, bosib utgan yulini, ijodini kisman bilsada bilsa darsda bolalarga xam yetarli ma’lumotlar bera oladi, darenig muxim metodik imkoniyati xam shundan iboratdir.

Talaba tasvirda boshning asosiy shaklini ifoda yetishni o’rganib olib, shakl tarkibini yanada chuqurroq o’rganishga o’ta boshlaydi. Odam boshining shakli juda

murakkab va u konstruktiv asos bilan belgilanadi. «Konstruksiya» deyilganda biz «tuzilish» qismlarining o'zaro joylashuvi, shakl tarkibini nazarda tutamiz. Biz «konstruktiv jihatdan uyg'un» deganimizda yaxshi qurilgan tasvirni nazarda tutamiz.

Odam boshini tasvirlashda muvaffaqiyat qozonish uchun shaklning konstruktiv jihatdan ko'rinishini ko'rish va uni rasmda ifoda yeta bilish qonuniyatlarini tushuna bilish kerak.

Tasviriy san'atni o'qitishning bunday olib borilishi maktabda ko'proq to'garaklarda ham davom etganda yaxshi natijalar beradi. Shuningdek, tasviriy san'atni o'qitadigan o'qituvchining o'zi ham yaxshi grafikada rasmlar chiza oladigan bo'lishlari talab qilinadi.

### **Umumiy xulosalar.**

Tasviriy san'at darslarida grafik rasmlar chizishda rassomlar ijodidan foydalanish masalan xar kanday dars soatining asosida turadi. Darsni olib borish turlarining barchada ma'lum bir rassom ijodiga, asarga murojaat kilmaslik mumkin emas. Shuning uchun xam men buyuk rassomlar Urol Tansikboyev, Abdulxak Abdullayev, Chingiz Axmarovlar ijodiga aloxida tuxtalib dars ishlanmalarida xam berdim.

Agar xamma tasviriy san'at darslarida xam rassomlarning ijodini urganish maksadi bilan darsga yondoshsa ish tugri va yaxshi boradi. Chunki rassomlarning asarlarini ukiy olish, ularning kilgan ishlari bilan tanishish bolaga estetik zavk beradi va ularga xurmat oshadi.

Maktabda tasviriy san'at xakida suxbat darslari bor, to'garaklarda dars olib borish mumkin. Ishning eng muxim tomonidarini yotiritish masalasi xam shu darslar orkali berilsa buladi.

Maktab ukituvchilari rassomlar ijodidan foydalangan holda grafik ishlarni amalga oshirib borilsa, hamda xar bir tasviriy san'at dars soatlarida foydalanib borishlari kerak.

Kupgina maktab ukituvchilari tasviriy san'at asarlarini yaxshi ukish

olmaydi. Buni rassom asarlarini, ijodini urganish bilan amalga oshirishlari mumkin. Agar tasviriy san'at darsini rassomlar ijodini tulkrok urganish bilan olib borilsa ukuvchilarning darsga kizikishi yanada ortadi va ular kelajakda komil insonlar bulib yetishadilar. Grafik tasvirlarni yaxshi o'zlashtirib olgan o'quvchi tasviriy san'atning boshqa turlari bo'yicha ham samarali ijod qila oladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T.Shark 1998-64 b.
2. Karimov I.A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T.O'zbekiston 1997-326 b.
3. Karimov I.A O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li T. O'zbekiston 1992-78 b.
4. Karimov I.A Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etish maqsadimiz T. O'zbekiston 2000-112 b.
5. Abdullayev N. San'at tarixi T.O'qituvchi, 1986-350 b.
6. Bulatov S.S Uzbek xalk amaliy bezak san'ati –T.Mexnat, 1991-384 b.
7. Bulatov S.S Ganchkorlik metodik qullanma –TRTM 1999 20 b.
8. Borev Yu.B Estetik M.Politizdat 1975-229 b.
9. Vatan tuygusi A.Ibroximov,X.Sultonov,N.Jurayev –T.Sharq, 1996-396 b.
- 10.Yuldoshev J.G O'smanov S.A Pedagogik texnologiya asoslari Qullanma, T.O'qituvchi 2004-104 b.

11. Zoxidov P.Sh. me'mor olami –T. Sharq 1996-240 b.
12. Karimov X. O'rol Tansiqboyev xayoti va ijodiy faoliyati xaqida lavxa –T. Yosh gvardiya 1976-136 b.
13. Kamoliddin B.jaxon tasviriy san'at va ta'lim tizimiga
- 14.N.Abdullayev Tasviriy San'at tarixi, 1986 yil 1-tom.
- 15.Karimov X.
16. T.Maxmudov , Abdulxaq Abdullayev xayoti va ijodi, 1992 yil
17. O'zbekiston san'ati (1991-2001 y.) Taxrir xay'at:  
X.Karimov,N.Jurayev,T.Quziyev, 2001-240 b.